

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Postda Ha nochy



2025-yil 3-iyul
payshanba
№ 27 (4721)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

YANGI O'ZBEKISTON – YANGI ICHKI ISHLAR ORGANLARI

PARVOZGA SHAYLANDI SHIJOATLI YIGIT-QIZLAR

Vatanni sevish, uni ko'z qorachig'idek asrash – kelajak avlod oldidagi muqaddas burch. Bugun yurtimizda mana shu burchga sodiq o'g'il-qizlar, yangi O'zbekistonning vatanparvar yoshlari kamol topmoqda.

Kuni kecha Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi bitiruvchilariga diplom topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

Bu yil Akademiyaning kunduzgi ta'lim yo'nalishini «Tezkor-qidiruv faoliyati», «Tergov faoliyati», «Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati», «Ekspert-kriminalistika faoliyati», «Xizmat faoliyatini psixologik ta'minlash», «Axborot xavfsizligi», «Tashkiliy shtab faoliyati» va «Jazoni ijro etish faoliyati» mutaxassisliklari bo'yicha 696 nafar kursant tamomladi. Shulardan 19 nafari imtiyozli diplom bilan, yana 2 nafari muddatidan oldin «katta leytenant» maxsus unvoni bilan yakunlashga muvassar bo'ldi.



2

Birinchi va ikkinchi Renessansni buyuk alloma va mutafakkirlarimiz yaratgan bo'lsa, bugun tarix navbatni sizlarga bermoqda. Ishonchim komil, sizlar barcha sohalarda mamlakatimiz bayrog'ini baland ko'tarishga qodirsiz. Sizlar – Yangi O'zbekiston bunyodkorlari sifatida yangi tarix yaratadigan oltin avlodsiz.

Shavkat MIRZIYOYEV



YANGI O'ZBEKISTON – YANGI ICHKI ISHLAR ORGANLARI

PARVOZGA SHAYLANDI
SHIJOATLI YIGIT-QIZLAR

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

Yana bir muhim jihati, 119 nafar kursant Xitoy va Belarus davlatlarining nu-fuzli ta'lim muassasalarida tashkil etilgan o'quv kurs-larida qatnashib, xorijning ilg'or tajribalarini o'rgandi.

So'nggi 5 yilda ichki ishlar organlarining oltin fondini tashkil

Shu bilan birga, jahon va qit'a chempionatlarida 16 ta, xalqaro turnirlarda 21 ta, respublika birin-chiliklarida 129 ta, turdosh oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi musobaqalar-da 139 ta medal qo'lga kiritildi. Xususan, Sabi-na Kamolova, Tofiqbek

yengil atletika bo'yicha respublika hamda xalqaro musobaqalarda g'olib va sovrindorlar safidan joy oldi.

Tadbirda bitiruvchilar-ga yuzlangan Ichki ishlar vaziri, general-mayor Aziz Toshpulatov xizmatda har qanday murakkab sha-roitda qasamyodlariga sodiq qolishlarini, xizmat



qiluvchi a'lochi va namunali kursantlar-dan **18 nafari «Ichki ishlar vaziri», 8 nafari «Jaloliddin Munguberdi», 6 nafari «Cho'lpon»** stipendiyalariga, **30 nafari «Akademiya a'lochi-si»** ko'krak nishoni, **38 nafari** milliy va xalqaro tanlovlar-da yuqori o'rinlarga sazovor bo'ldi.

Akramov, Anvar Hasanov, Dilbar Safarovalar «Ichki ishlar vaziri» stipendiya-siga, Kamron Ismoilov «Jaloliddin Munguberdi» nomidagi stipendiyaga, Farangiz Abdurahmonova «Cho'lpon» stipendiyasiga sazovor bo'lgan bo'lsa, Muyassar Kushmuratova ayollar kurashi, Azizbek Hoshimov kikkoksing, Asadbek Murodov qo'l jangi, Iroda Bekmirzayeva

vazifalariga halol, vijdonan yondashib, burchlarini yuksak mas'uliyat bi-lan ado etishlarini, in-son huquqlariga qat'iy rioya qilgan holda, fuqa-rolar huquqlari, erkin-liklari va qonuniy man-faatlarini har qanday tajovuzlardan himoya qilishlarini, shuningdek, muntazam o'z ustilarida ishlab, kasbiy bilim va ko'nikmalarini yuksaltirib borish va xalqparvar ichki ishlar organi xodimi degan sharaflı nomga munosib bo'lishlarini ta'kidladi.

Yoshlarning buguni va kelajak taqdiri yo'li-da yaratilayotgan ulkan imkoniyatlar, fidoyi va tashabbuskor yosh-lar qo'lga kiritayotgan yutuqlari e'tirof etilib, jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi ku-rashishda Vatanimiz va xalqimizga yuksak sa-doqat bilan xizmat qilish zarurligi qayd etildi.

Go'zal JAFAROVA,
o'z muxbirimiz.



Toshkent shahar IIBB YHXB Yo'l-patrul xizmati briga-dasining ma'muriy binosi to'liq kapital ta'mirdan chiqarilib, foydalanishga topshirilishi bo'yicha o'tkazilgan tantanali tadbirda Ichki ishlar vazirligi rahbariyati, Toshkent shahar hokimi va prokurori, shuningdek, jamoatchilik faollari va faxriylar ishtirok etdi.

ZAMONAVIY SHAROIT –
YUTUQLAR OMILI

Joriy yilning o'tgan davri-da poytaxt yo'l harakati xavfsizligi xizmati tomonidan 356 ta giyohvandlik va psixotrop moddalarni saqlash, tashish va iste'mol qilish bilan bog'liq jinoyat aniqlangan, 70 nafar qidiruvdagi shaxs qo'lga olingan ham-da 100 dan ortiq qidiruvdagi transport vositalari ushlan-gan. Poytaxt yo'llarida 2 mln. 974 mingdan ortiq qoidabu-zarliklar aniqlanib, qonuniy choralar ko'rilishi ta'minlangan.

Amalga oshirilgan cho-ra-tadbirlar natijasida Toshkent shahrida umumiy yo'l-transport hodisalari soni 4,1 foizga, o'lim bilan bog'lig'i 6,9 foizga, tez-likni oshirish oqibatida sodir bo'lganlari 66,7 foizga, mast

prognoz qilishga qaratilgan Kompyuterlashtirilgan vaziyat-lar markazi yaratildi.

Markazga tatbiq etilgan in-tellektual transport platformasi avtotransport oqimini kuzatish, tahlil qilish va intellektual bosh-qarishga imkoniyat yaratadi. Bu, pirovardida, shaharda tirbandlik 50 foizgacha kamay-ishiga, yo'lovchilar vaqti teja-lishiga, favqulodda xizmatlar harakatini tezlashtirish ham-da qaror qabul qilishda aniq statistika orqali samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Tadbir davomida Toshkent shahar hokimligi tomoni-dan yo'l-patrul xizmati va patrul-post xizmati uchun maxsus vositalar «Cobalt»



holda transport vositasini bosh-qarish oqibatidagi halokatlar 16,7 foizga, shuningdek, bo-lalar ishtirokidagi avtohalokat-lar soni 8 foizga kamayishiga erishilgan.

Poytaxt ko'chalarida harakat xavfsizligini raqamlashtirish, zamonaviy texnologiyalar va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalangan holda yo'l-transport hodisalarining oldini olish, shaharda tirbandliklarni barvaqt

rusumli yangi xizmat avto-mobillari topshirilib, el-yurt osoyishtaligini ta'minlash yo'li-dagi fidokorona xizmatlari, ji-noyatchilikka qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'min-lash ishiga qo'shgan munosib hissasi uchun bir guruh xo-dimlar turli mukofotlar bilan rag'batlantirildi.

O'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



MAHALLA TINCH – YURT TINCH

Podpolkovnik Ziyodullo Meyliyevning uyali telefoni jiringladi. «Eshitaman» deyishi bilanoq ayolning yig'i aralash ovozi eshitildi: «Bolaning «kolyaska»sini o'g'irlab ketishibdi». Profilaktika katta inspektori zudlik bilan holat yuz bergan mavzega yetib bordi. Ko'p o'tmay, jinoyat kuzatuv kameralari orqali «issiq izida» fosh etildi.

«BIR JOYDA O'TIRSA, ISH BITMAYDI...»



Bir oilaning muammosi hal bo'lganidan ko'ngli yorishdi. Ertaga mahalla fuqarolar yig'inida o'tadigan yig'ilishda shu masalani ko'taradi. Chunki so'nggi paytlarda ko'p qavatli uylar yo'lagida qarovsiz qoldirilgan velosiped, bolalar aravachalari va skuter o'g'riligi ko'payib boryapti. Oldi olinmasa, bunday jinoyatlar va jabrlanuvchilarning soni ortishi turgan gap.

Poytaxtimizning Chilonzor tumani IIOFMB 2-sonli Ichki ishlar bo'limi Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmasi profilaktika katta inspektori, podpolkovnik Ziyodulla Meyliyev «Katta Chilonzor-1» mahallasi hududida xizmat olib boradi. Mahalla aholisi 6250 nafar, 60 ta ko'p qavatli uy mavjud.

Podpolkovnik Z. Meyliyev joriy yil boshidan bugungi kunga qadar mahallada istiqomat qiluvchi 12 nafar oilaviy janjalkash, 8 nafar ichkilikbozlikka ruju qo'ygan shaxs bilan profilaktik tadbirlarni amalga oshirdi. Shuningdek, u 15 nafar muqaddam sudlangan, 3 nafar probatsiya xizmati nazoratidagi, 12 nafar ichki ishlar organlarida profilaktik hisobda turgan shaxs bilan tez-tez muloqot o'tkazadi.

Ta'kidlash kerakki, jonkuyar podpolkovnikni mahalla ahli hurmat qiladi, qo'llab-quvvatlaydi. Ayniqsa, fuqarolar yig'ini raisi Fazliddin Niyozmatov bilan hamkorlik o'z samarasini bermasdan qolmayapti. Mahallada

joriy yilning o'tgan davrida birorta jinoyat qayd etilmagani buning isbotidir.

O'rni kelganda qayd etish joiz, Qashqadaryo viloyatida tug'ilib o'sgan Ziyodulla Meyliyev otasi – iste'fodagi podpolkovnik marhum Mahammadi Meyliyevga havas qilib, mazkur sohada ishlamoqqa ahd qilgan. Ichki ishlar organlarida 2004-yildan buyon xizmat qilib keladi.

Ko'p yillik xizmat tajribasiga ega podpolkovnik Ziyodulla Meyliyevdan «Har bir profilaktika inspektoriga muvaffaqiyat keltiruvchi «universal» usul bormi?» deb so'raganimizda, u quyidagicha javob berdi:

– Profilaktika inspektori bir joyda o'tirsa, ish bitmaydi. Odamlar orasida bo'lsangiz, ularning ishonchini qozonsangiz, aholining o'zi sizga maslahati, amaliy harakati bilan yordam beradi.

Lavhamiz qahramoni xizmatda jasur va tajribali xodim, uyda esa vafodor yor, mehribon ota. U turmush o'rtog'i Feruzaxon bilan ikki nafar o'g'il va bir qizni tarbiyalab, voyaga yetkazmoqda. Oila a'zolari uni ishdan qaytishini intiq bo'lib kutishadi.

Darhaqiqat, bir inson uchun odamlarga nafi tegadigan kasbda ishlash, jamoada hurmat qozonish, farzandlariga g'amxo'rlik qilishdan-da ortiq baxt bormikan?!

Adolat FAYZIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

AYOL VA JAMIYAT

ULARNI TINGLASH KERAK

Bugun jamiyatimizda xotin-qizlar o'rtasida yuz berayotgan huquqbuzarliklarning sabablarini o'rganish va ularni bartaraf etishga qaratilgan ko'plab chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Jumladan, 92 ming nafardan ortiq xotin-qiz istiqomat qiluvchi Paxtaobod tumani ham mazkur masalada keng ko'lamdagi profilaktik tadbirlar olib borilmoqda.

Tuman IIB JXX HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, kapitan Maftuna Qurbonova bilan suhbatlashganimizda, u faoliyati doirasida amalga oshirayotgan ishlar haqida gapirib berarkan, birinchi galda, aholi o'rtasida huquqiy savodxonlikni keng targ'ib qilish zarurligini aytdi. Chunki fuqarolar qo'l urgan huquqbuzarligi yoki jinoyatining oqibatlarini tushunib yetisa, uni sodir etmaslikka harakat qiladi.

– Asosiy profilaktik tadbirlarimizni mahallalarga borib, faollar, profilaktika inspektori bilan hamkorlikda amalga oshiramiz, – dedi suhbatdoshimiz. – Chunki har bir yurtidoshimiz, u qaysi kasbda, qanday ijtimoiy maqomda bo'lishidan qat'i nazar, mahallada istiqomat

119 tasi joriy yilda rasmiylashtirildi. Order eng ko'p hollarda ayollarning o'z turmush o'rtog'idan himoyalaniishi uchun, shuningdek, uchinchi shaxslarning aralashuvidan aziyat chekmaslik yoki janjalkash qo'shnilarning zo'ravonliklaridan jabr ko'rmaslik maqsadida beriladi.

– Himoya orderi taqdim qilgandan so'ng jabr yetkazishi mumkin bo'lgan shaxs bilan alohida profilaktik suhbat olib boramiz, – deydi kapitan Maftuna Qurbonova. – Orderdagi cheklovlariga rioya qilmaslik oqibatlarini tushuntiriladi. Bu kabi chora-tadbirlar, albatta, samara beradi.

Xotin-qizlar profilaktikasi ustida gap borar ekan, qachonki jarayonga keng jamoatchilik jalb qilinsa, natija o'z so'zini aytadi. Masalan, oilaviy nizolarni bartaraf qilish va tomonlar-



qiladi. Uning atrof-muhit bilan munosabati, ijtimoiy hayotdagi o'rni, aynan shu yerda shakllanadi. Biz ularga zo'ravonliklardan o'zlarini qanday himoyalash, og'ir vaziyatda qolganda «1146» qisqa raqami bilan bog'lanish, huquqbuzarlikka yo'l qo'ysa, qonunlar ustivor, jazo esa muqarrarligini tushuntiramiz. Profilaktik suhbatlar natijasida ko'pchilik ayollar o'ziga kerakli xulosani chiqarib, keyinchalik biron vaziyatga duch kelganda aql bilan yo'l tutishga harakat qiladi. Boshqalar orasida o'z muammolarini aytishga tortingan ishtirokchilarga bog'lanish uchun telefon raqamlarimizni qoldirib ketamiz. O'sha shaxs yolg'iz suhbat paytida har qanday dardini ochiq gapira oladi.

Inspektorning aytishicha, hozirda tumanda 221 nafar shaxsga himoya orderi berilgan. Shundan

ni yarashtiruv ishlarida ichki ishlar xodimi bilan birga, xotin-qizlar faoli, mahalla oqsoqollari, imom-xatib, otinoyilar ham ishtirok etsa, vaziyat yaxshi tomonga o'zgaradi.

Nima bo'lganda ham, ayollarni tinglash va tushunish, ularga to'g'ri yo'lni ko'rsatish, jinoyat yoki huquqbuzarlikka undagan sababni bartaraf etish eng yaxshi profilaktik chora-tadbirdir. Buni esa xotin-qizlar bilan ishlovchi inspektorlar juda yaxshi angelaydi. Bugun tumanda og'ir ijtimoiy muammolar girdobiga tushib qolgan xotin-qizlar ko'p emas. Shunday vaziyatga duch kelganlari ham e'tiborsiz qoldirilmay, ularga o'z vaqtida huquqiy hamda ma'naviy ko'mak berilmoqda.

Nigora TO'XTAMATOVA,
o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.

YUKSAK MUKOFOT SOHIBLARI

MARDLIKNING BAHOSI YO'Q



Yoshlarning yurtimiz taraqqiyoti va xavfsizligi yo'lidagi fidokorona xizmati hamisha yuksak baholanadi. Shu kunlarda Surxondaryo viloyati IIB Tezkor vazifalarni bajaruvchi safarbar otryadi o't ochib qo'llash guruhi katta mutaxassisi, katta serjant Sher Muhammad Jandreyev Prezident farmoniga muvofiq, «Mard o'g'lon» ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.



Bu yuksak mukofot Vatanga sadoqat, xizmatga fidoyilik va namunaviy intizomning yorqin ifodasidir. Ichki ishlar organlaridagi xizmat faoliyatini 2018-yilda boshlagan Sher Muhammad Jandreyev hamkasblariga mas'uliyat, jasorat va harbiy intizomga qat'iy rioya qilish bilan tanilgan. Uning faoliyati nafaqat rahbarlar, balki hamkasblari va yoshlar orasida ham munosib e'tirof etilmoqda.

Sher Muhammad har bir topshiriqni o'z vaqtida va a'lo darajada bajarishi, tezkor qaror qabul qilishi, yuksak jismoniy va ruhiy tayyorgarligi bilan ajralib turadi. Uning sa'y-harakatlari natijasida joylarda xavfsizlikni ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olish hamda jamoat tartibini saqlashda muhim yutuqlar qayd etilgan.

Sher Muhammad sportning kurash va dzyudo turlari bilan bolaligidan shug'ullanib keladi. Otasi Mamara-jab Jumayev musobaqalar oldidan o'g'liga ishonishini, kichik mag'lubiyatlar katta g'alabalar sari yetaklashini

aytib, uni qo'llab-quvvatlashga harakat qiladi. Ana shu ruhiy dalda kuchi bilan Sher Muhammad sportning kurash turi bo'yicha Jahon chempioni hamda 11 karra O'zbekiston chempioni bo'ldi, 3 marta Osiyo kubogini, 3 marta Osiyo chempionligini hamda 2 marta Prezident sovrinini qo'lga kiritdi. Indoneziya, Janubiy Koreya, Qozog'iston, Tojikiston, Vengriya hamda Eronda o'tgan xalqaro musobaqalarda sovrinli o'rinlarni egalladi. Vaholanki, bu yutuqlarni qo'lga kiritgunga qadar Sher Muhammad qancha mehnat, mashaqqat, iroda, sabot va sabr bilan ortga chekinmasdan harakat qildi. Uning ushbu harakatlari bugun o'z samarasini ko'rsatmoqda.

Sher Muhammadning «Mard o'g'lon» ko'krak nishoni bilan taqdirlanishi nafaqat uning shaxsiy yutug'i, balki Surxondaryo viloyati ichki ishlar organlari safida xizmat qilayotgan barcha yoshlar uchun ham ruhiy quvvat va ilhom manbaidir.

– Prezidentimizning qo'llaridan ushbu mukofotni qabul qilib olarkanman, qalbim hayajon va g'ururga to'ldi. Menga bildirilgan ishonch ortida nafaqat davlatimiz rahbari, balki butun xalqimiz mustahkam tog'dek turganini his qildim. Bu menga yanada shijoat baxsh etdi. Vatanga xizmat qilish qanchalik sharafligini yana bir bor angladim. Bunday e'tirofdan nafaqat men, balki ota-onam ham juda-juda sevindik. Menga bildirilgan yuksak ishonchni oqlashga bundan keyin ham astoydil harakat qilaman.

El og'ushida kamol topayotgan, mardlik timsoliga aylangan Sher Muhammad singari yoshlarimizning bugungi yuksak mukofotlari er-tangi yanada buyuk yutuqlar sari yo'l ochishiga shubha yo'q. Surxon elining mard va jasur, polvon o'g'li, jasurligining berilgan mukofot muborak bo'lsin!

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.
Surxondaryo viloyati.

QILNI QIRQ YORIB

Quyichirchiq tumani IIB EKG katta eksperti, katta leytenant Husniddin Usmonov 19 yildan buyon ichki ishlar organlarida namunali xizmat faoliyatini olib borayotgan xodimlardan biri. U xizmat faoliyatini Ohangaron shahar IIB Qo'riqlash bo'limi safdor xodimi sifatida boshlab, qariyb o'n yil davomida ushbu yo'nalishda kasbiy jihatdan toblandi. Keyinchalik xizmat faoliyatini Zangiota tumanida davom ettirdi.

YILLAR SINOVIDA TOBLANGAN



Lavhamiz qahramoni 2022-yildan Quyichirchiq tumanida ekspert-kriminalistika yo'nalishi bo'yicha o'z mahoratini ko'rsatib kelmoqda. Uning ekspert sifatida shakllanishida ustoz – iste'fodagi podpolkovnik Abror Fozilovning xizmati beqiyos.

2023-yili tuman hududida bosqinchilik jinoyati sodir etildi. A'lo O'tkirov (voqea ishtirokchilarining ism-shariflari o'zgartirildi) oldi-sotdi orqali 5000 AQSH dollari miqdorida pulga ega bo'lib, uni o'z uyida saqlab kelgan. Bundan xabar topgan Jonibek Eshtemirov bir necha fuqarolar bilan uyushgan holda ushbu pullarni qo'lga kiritish maqsadida bosqinchilikka qo'l uradi. To'g'ri, jinoiy to'da pullarni olib ketishni uddalay olmaydi, lekin xonadon egalari do'pposlab, ularga

turli tan jarohatlarini yetkazishadi.

Tezkor xodimlar bilan hamkorlikda aniq rejalar belgilab olingach, ustoz-shogird ekspertlar – Abror Fozilov va lavhamiz qahramoni Husniddin Usmonov o'z mahoratini namoyish etishdi. Ular uyushgan guruh a'zolaridan birining oyoq izlarini mohirona aniqlashi orqali jinoyat ochilishiga erishildi.

Husniddin Usmonov yildan-yilga kasbiy mahoratini oshira bordi. Turli holatlarda sinaldi, dalillarga tayanib ish ko'rди. O'zini har tomonlama ko'rsatishga muvaffaq bo'ldi. Uning sohadagi fidoyiligi hamda namunali xizmati munosib baholanib, joriy yilda Ichki ishlar vazirligining «Benuqson xizmatlari uchun» ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Abror POYONOV,
o'z muxbirimiz.
Toshkent viloyati.

KURSANTLAR HAYOTIDAN

Shu kunlarda IIV Akademiyasining bir guruh kursantlari Qashqadaryo viloyati ichki ishlar organlarida amaliyot o'tamoqda. Shu munosabat bilan dastlab amaliyotni o'tash jarayoniga bag'ishlangan yo'riqnoma o'tkazilib, boshqarma sohaviy xizmatlari va shahar-tumanlarda uzoq yillardan buyon xizmat qilayotgan tajribali xodimlar kursantlarga murabbiy etib birlashtirildi.

– Viloyat IIB Kiberxavfsizlik bo'limida amaliyot o'tayapman, – deydi IIV Akademiyasi 2-bosqich kursanti Islom Qo'ziyev. – Albatta, nazariy bilimni amaliyotda qo'llash sohaga oid ko'nikmamni oshiradi. Hali o'rganishim kerak bo'lgan bilim va tajribalar talaygina. Bu borada murabbiyim, kapitan Akrom Ubaydullayevdan kasb sirlarini o'zlashtiryapman.

TAJRIBA MAKTABI



Suratda: kapitan S. Aliqulov kursantlar bilan amaliyotda.

– Birinchi va ikkinchi bosqich kursantlari Akademiyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash, faoliyatda to'g'ri qo'llash, kasb sirlarini puxta o'rganish uchun amaliyot o'tamoqda, – deydi IIV Akademiyasi o'qituvchisi, amaliyot rahbari, podpolkovnik Iskandar Rahmonqulov. – Bundan ko'zlangan asosiy maqsad kursantlarning kasbiy mahorati, jismoniy va jangovar shayligini, xizmatga tayyorgarligini oshirishdir.

Amaliyot – tajriba maktabi. Bu ayni paytda viloyat ichki ishlar organlarida amaliyot o'tayotgan kursantlarning kasbiy malakasini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.



★ Память о подвиге

ЧЕЛОВЕК ДОЛГА И ЧЕСТИ

Недавно в УВД Хорезмской области состоялось трогательное мероприятие. Детям сотрудников органов внутренних дел, погибших при исполнении служебных обязанностей, были вручены рекомендации для поступления в бакалавриат вузов Республики Узбекистан. В торжественной обстановке вручена такая рекомендация и Сапармаду Илёсову, сыну погибшего героя.

Отец погиб, когда Сапармаду едва исполнилось семь лет. В тот роковой день рядовой Дилшод Якубов выехал на очередное задание. Поступило сообщение о возгорании в доме по улице Халк сузи. Огонь стремительно распространялся на соседние дворы, охватил 90 квадратных метров. В тушении пожара участвовали 9 пожарных расчетов. Дилшод Якубов одним из первых встал на пути пламени, не допустив его дальнейшего разрастания. Несмотря на полученные ожоги,

В 2015 году указом Президента страны медалью «Жасорат» (посмертно) был награжден рядовой Дилшод Якубов, пожарный военизированной части пожарной безопасности ОВД Ургенча.



герой продолжал самоотверженно бороться с огненной стихией. К сожалению, несмотря на все усилия врачей, он скончался.

Руководство МВД с глубоким уважением относится к памяти героев, семья каждого сотрудника, погибшего при исполнении служебного долга, всегда находится в центре внимания и заботы. Это подтверждение того, что государство и система внутренних дел никогда не забывают о тех, кто проявил высшую степень отваги.

Худойберган ЖАББОРОВ,
соб. корр.

Хорезмская область.

■ Андижанская область

ПЛАНЫ И НАДЕЖДЫ МОХИНУР

Детям свыше 150 сотрудников органов внутренних дел Андижанской области, образцово несущих службу, предоставлены рекомендации для поступления в вузы в рамках пятипроцентной квоты.



Такую возможность получила и Мохинур Собирова – дочь старшего дежурного дежурной части ОВД № 3 УКД ОВД города Андижана подполковника Баходира Омонуллаева. Любознательная и целеустремленная девушка проявляет интерес к литературе. Это привело ее в республиканскую творческую школу имени Мухаммада Юсуфа. Будучи ее ученицей, она регулярно участвовала в смотрах-конкурсах, становилась призером.

В течение учебного года получила сертификаты по двум предметам, что существенно повысило ее шансы для поступления в высшее учебное заведение. Рекомендация УВД области стала дополнительным плюсом.

Девушка свободно владеет русским и турецким языками. Посещает курсы изучения английского языка. Родители всемерно поощряют ее стремление к знаниям, создают для этого необходимые условия.

Мать, Сурайё опа, преподает иностранный язык в Андижанском государственном университете. Мохинур в будущем мечтает стать учителем родного языка и литературы.

Нигора ТУХТАМАТОВА,
соб. корр.

■ Республика Каракалпакстан

«КАРАТЕРЕН» ОБЪЕДИНЯЕТ

В этно-туристическом комплексе «Каратерен» Тахтакупырского района Каракалпакстана состоялось культурно-просветительское и спортивное мероприятие под девизом «Вместе мы едины – Родина крепка», организованное для молодежи.



К месту проведения участников доставили в составе автокаравана на специально оборудованных транспортных средствах органов внутренних дел. В мероприятии приняли участие более пяти тысяч юношей и девушек.

Программа включала интеллектуальный тур-

нир «Молодые юристы» и спортивную эстафету, в ходе которых участники продемонстрировали свои знания, правовую подготовку и физическую выносливость.

– Я приехала из Кегейлийского района. О туристическом комплексе узнала по телевизору.

Давно мечтала побывать здесь. Сегодня мечта осуществилась – познакомилась со сверстниками, завела новых друзей. Благодарю организаторов, – поделилась впечатлениями Гоззал Муратбаева, занявшая первое место в конкурсе «Молодые юристы». – В будущем хочу связать свою профессию с юриспруденцией.

Победители и призеры интеллектуального и спортивного состязаний были награждены дипломами и ценными подарками. Завершилось мероприятие праздничным концертом с участием мастеров искусств.

Хурзада РЕЙМКУЛОВА,
подполковник.



XIZMATLARDA

SAYYOH MAMNUN BO'LSA...

Qozog'istonlik Tokjan Sarsenbayeva oila a'zolari bilan Xiva shahridagi «Ichan qal'a» davlat muzey-qo'riqxonasini tomosha qilayotib, ichida pul, plastik kartalar va hujjatlar bo'lgan sumkasini yo'qotib qo'yadi. Sayyoh darhol viloyat IIB XTTB xodimlariga murojaat qiladi. Boshqarmaning jamoat tartibini saqlash guruhi inspektori, kapitan Bobur Habibullayev tomonidan olib borilgan tezkor surishtiruvlar davomida sumka topildi va u but holda o'z egasiga qaytarildi. Sayyoh esa bundan mamnun bo'lib, xodimlarga minnatdorlik bildirdi.



– Joriy yilning o'tgan davrida viloyatga kelgan 284 ming nafardan ortiq mahalliy va xorijiy sayyohlar hamda xalqaro tashkilotlar delegatsiyalarining xavfsizligini ta'minlash, turizm namoyishi obyektlari va infratuzilmalari hududlarida namunali jamoat tartibini ta'minlash choralari

ko'rildi, – deydi viloyat IIB XTTB boshlig'i, polkovnik Ruslan Eshniyozov. – Xodimlarimizga 7146 nafar sayyoh turli masalalarda yordam so'rab murojaat qildi va bu so'rovlar qisqa fursatlarda ijobiy hal etildi. Muhimi, sayyohlarning boy madaniy merosimiz bilan yaqindan tanishishi, sayohat

davomida mazmunli hordiq chiqarishi uchun barcha sharoitlar yaratildi, xavfsizligi ta'minlandi.

– Xiva tarixiy go'zal shaharlardan biridir, – deydi fransiyalik Mark Tomas. – Bu qadimiy shaharga kelgach, tasavvurlarim batamom o'zgardi. «Ichan qal'a» va

Joriy yilda turizm namoyishi obyektlari va unga tash hududlarda maqsadsiz yurgan 1157 nafar fuqaro bilan suhbatlar o'tkazilib, huquqbuzarlik sodir qilgan 232 nafar shaxsga nisbatan ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirildi. Shu bilan birga, xizmat hududlarida



ladan, boshqarma ma'muriy binosidagi Vaziyatlar markaziga Xiva shahrining turizm namoyishi obyektlaridagi 600 dan ortiq videokuzatuv kameralari integratsiya qilingan. Joriy yilning o'tgan davrida ushbu kuzatuv kameralari yordamida 30 dan ziyod turli huquqbuzarliklar aniqlanib, sodir etilishi mumkin bo'lgan 11 ta jinoyatning oldi olindi. Shuningdek, 32 nafar mahalliy, 26 nafar xorijiy sayyohga turli yo'nalishlarda amaliy yordam ko'rsatildi.

Xudoybergan JABBOROV,
o'z muxbirimiz.
Xorazm viloyati.

SURATLI LAVHA

HARBIYLAR – VATAN POSBONI



Ichki ishlar vazirligi Qorovul qo'shinlari qo'mondonligiga qarashli, polkovnik Ravshan Rozumov komandirlik qilayotgan 7531-harbiy qism harbiy xizmatchilari faoliyatidan.



Abu KENJAYEV
olgan suratlar.



BUXORO TOMONLARDA

KASB FIDOYISI

ASHYOVIIY DALILLAR BILAN TILLASHIB

Qishloqdagi ota hovlisida bir oycha bo'lib qaytgan Shoira (ism-shariflar o'zgartirildi) yotoqxonasidagi qulf ochilganini ko'rib «kapalagi» uchdi. Chunki idish-tovoqlari, televizori va umumiy summasi 20 millionga yaqin bo'lgan boshqa buyumlari yo'qolgan edi. Shu bois zudlik bilan Buxoro shahar IIOFMBga ariza bilan murojaat qildi. Uning murojaati asosida tergov-tezkor xodimlari voqea joyini ko'zdan kechirib, ashyoviy dalillar ola boshladi.

Shahar IIOFMB EKB katta eksperti, katta leytenant Zavqiddin Sa'dullayev tomonidan olingan qo'l-barmoq izlari shu mahallada yashovchi U.G'afurniki bo'lib chiqdi.

1-iyun kuni taxminan soat 11:00 larda shaharning Sanoatchilar ko'chasida joylashgan gaz quyish shoxobchasi hojatxonasida o'g'rilik jinoyati sodir etiladi. Surishtiruv jayronida shu narsa ayon bo'ladiki, avtomashinada yo'lovchi sifatida kelayotgan O'.Saloyeva haydovchi mashinaga gaz quyayotgan payti vaqtdan «unumli» foydalanish maqsadida hojatxonaga oshiqadi. Shoshganidanmi yo sumkasidagi

pullarni hamrohlariga ishonmadimi, harqalay uni hojatxona koridorida qoldiradi. Chiqsa, sumkasi joyida, lekin u yengilday tuyuladi. Yuragi «shuv» etib, ichini ochsa, 7 million 400 ming so'm puli «qulog'i»ni ushlab ketgandi.

Mazkur jinoyatning ochilishida ham katta leytenant Z. Sa'dullayevning xizmati katta bo'ldi. U olgan barmoq izlari Vobkent tumani «Pushmon» mahallasida yashovchi M. Mahkamniki ekan.

Tajribali mutaxassis podpolkovnik Zohidjon Haqberdiyev murabbiyligida xizmat faoliyatini boshlagan.

Hozirgi kunda katta ekspert



lavozimida xizmat qilayotgan Z.Sa'dullayev tergov-tezkor guruhi tarkibida 168 marotaba voqea joyini ko'zdan kechirish tergov harakatida qatnashib, 210 ta daliliy ashyo olishga muvaffaq bo'ldi. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida 20 ta dakti-loskopik va 5 ta trasologik xulosa berdi. Shuningdek, jinoyat va tadbir-

lar bo'yicha o'tgan oylar davomida 1350 ta rangli fotosurat ishlangan. 50 nafar jinoyat qilishga moyil shaxs ro'yxatga olinib, ularning qo'l-barmoq izlari, video, fotosuratlar va kartotekalari tayyorlandi.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

QORAKO'LDA
MANZILLI ISHLAR

Qorako'l tumanining kriminogen vaziyat birmuncha og'irlashgan «Qorahoji» hamda «Jig'achi» mahallalarida jinoyatlarning «mahallabay» muhokamasi o'tkazildi. Muhokamada ikkala mahallada vujudga kelgan kriminogen vaziyat, hududda sodir etilgan jinoyatlarning kelib chiqish sabablari va unga omil bo'lgan shart-sharoitlar birma-bir tahlil qilindi.

«Dolzarb 90 kunlik» tadbirlari doirasida tumandagi otaliqqa olingan tarbiyasi og'ir yoshlar bilan uchrashuv o'tkazilib, muammolariga yechim topish bo'yicha tadbirlar belgilab olindi. Shuningdek,

30 nafar tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan hamda nizoli oilalardagi xotin-qizlarning har biri bilan yakka tartibda suhbatlashildi, huquqiy tushuntirishlar berildi.

Bundan tashqari, tuman Markaziy bozorida karantin va sanitariya-epidemiologiya qoidalariga rioya qilinishi tekshiruvdan o'tkazilib, 76 ta savdo va go'sht do'koni egalari rasmiy ogohlantirildi. Veterinariya-sanitariya qoidalarini normalarini buzganligi uchun bir nafar shaxsga nisbatan ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirildi.

Cho'milish havzalarida voyaga yetmaganlar cho'kishining oldini olish maqsadida targ'ibot ishlari olib borildi. Yana 3 nafar qarovsiz va nazoratsiz qolgan voyaga yet-



maganlarga nisbatan «Inson» ijtimoiy markazi xodimlari tomonidan vasiy va homiy tayinlandi. 1 nafar VEIHYOKMda tarbiyalanib chiqqan voyaga yetmaganing turmush sharoiti o'rganilib, oila a'zolari bilan tushuntirish ishlari o'tkazildi. Qolaversa, 1 nafar spirtli ichimlikka ruju qo'ygan shaxsni majburiy davolanishga hamda 1 nafar ruhiy kasal viloyat ruhiy asab kasalliklari shifoxonasiga yotqizildi. 5 nafar tazyiq va zo'ravonlikka uchragan xotin-qizga nisbatan himoya orderi berilib, 1 nafar himoya orderi talabini buzgan shaxsga nisbatan ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirildi.

Erkin QOBILOV,
mayor.

Qorovulbozor tumanining «Tinchlik» mahallasida yashovchi D.Malohat (ismlar o'zgartirildi) gap-so'zlarga ishonib, kelini Z.Zarinani yomonotliq qilmoqchi bo'ldi. Ammo kelin ham «haqqi»ni birovga berib qo'yadigan «indamasxo'ja»lardan emasdi...

HAMISHA HIMOYAMIZDA



Hududiy profilaktika inspektori mahalla faollari bilan birgalikda bir-ikki ogohlantirish bergani bois qaynona-kelin bir muddat ahil-inoq bo'lishida, biror arzimasa sabab yuzaga kelsa, yana ularning mashmashasi boshlanardi. Biz o'rganish jarayonida masalaning mohiyatini angladik. Ma'lum bo'lishicha, Malohat opa o'g'lini birinchi xotini bilan ajratib, Zarinani kelin qilgan. O'zicha, «u chizgan chizig'imdan chiqmaydi», deb o'ylagandi. Ammo Zarina

ham qaynonaning «muomala»siga mos javob berib, gap qaytargan. Gap esa katta qozonda qaynagan...

Xullas, qaynonaning arzimagan sabablardan janjal chiqargani, kelinning esa o'zidan katta yoshdagilarni hurmat qilmagani tufayli uyda kelishmovchilik va janjal bo'layotgandi. Ularning har ikkalasiga ham kattaga hurmatda, kichikka izzatda bo'lish kerakligini, jamiyatning bir bo'lagi bo'lgan oilaning muqaddasligini, bir-birlari bilan murosa qilishlarini tushuntirdik.

So'ngra har ikkalasiga ham bir oy muddatga himoya orderi berildi va undagi cheklovlarga rioya qilishlari aytiladi.

Oilalarni o'rganish jarayonida bu kabi holatlarga ko'p duch kelamiz. Ularning muammolarini ijobiy hal etishda mahalla yettiligi va faollari, ayniqsa, hayotiy tajribaga ega nuroniy otaxonlar-u kayvoni onaxonlarning beg'araz yordamiga suyanamiz.

Iqbol HUSENOVA,
kapitan.



Борьба с торговлей людьми

ВМЕСТЕ ПРОТИВ ЗЛА

В Республиканском социально-информационном центре «ISTIQBOLLI AVLLOD» дан старт масштабному мероприятию «30 дней – в партнерстве против торговли людьми», которое продлится до 30 июля – Всемирного дня борьбы с торговлей людьми.



Представители РСИЦ «ISTIQBOLLI AVLLOD», МВД Узбекистана, Подкомиссии по вопросам противодействия торговле людьми, УНП ООН, Международной организации по миграции, других заинтересованных организаций подчеркну-

ли, что торговля людьми – одно из самых бесчеловечных деяний, нарушающих фундаментальные права человека. Спикеры отметили прогресс, достигнутый в борьбе с данным преступлением на национальном уровне, включая усиление

законодательной базы, повышение эффективности правоохранительных мер и расширение международного сотрудничества. Однако масштабы проблемы требуют дальнейшего усиления превентивных мер, комплексного подхода к проблеме,



включая выявление и наказание виновных, защиту жертв, их реабилитацию и реинтеграцию в общество. Участники были единодушны во мнении, что только совместными усилиями можно добиться значительных результатов.

– Акция будет включать проведение семинаров-тренингов для специалистов, информационных кампаний для населения, встреч с по-

тенциальными группами риска. Особое внимание будет уделено повышению правовой грамотности граждан, – подчеркнула руководитель РСИЦ «ISTIQBOLLI AVLLOD» Нодира Каримова. – Убеждены, мероприятие явится важным шагом в координации усилий в борьбе с этим социальным злом.

Радик ТУМΠΑРОВ,
соб. корр.

Вдохновляя примером

ДОСТОЙНАЯ СМЕНА

Личный пример, пожалуй, самое действенное средство воспитания. Глядя на родителей, дети постигают науку жизни. Их род занятий зачастую влияет и на выбор профессии. С юного возраста они перенимают ценности и интересы, которые затем становятся основой их призвания.

Так произошло и с Бахтиёром Собировым. Его отец продолжительное время служил в органах внутренних дел, был примером для будущего лейтенанта.

Окончив Университет общественной безопасности, в 2024 году начал службу в должности инспектора профилактики ОПП УКД ОВД Мирабадского района столицы. Своим наставником он считает старшего инспектора профилактики подполковника Зокира Хайдарова.

Молодой сотрудник уверен, что разница между теорией и практикой наглядно проявляется, когда постигаешь особенности службы рядом с опытными коллегами. Поэтому молодежь старается почерпнуть как можно больше от старших товарищей.



Подобный подход, такое отношение к работе уже приносят свои результаты. Ныне инспектор группы административной практики ОПП УКД ОВД Мирабадского района лейтенант Б. Собиров успешно выполняет возложенные на него обязанности.

Большое внимание уделяет правильному оформлению административных документов, точному ведению отчетности.

У Бахтиёра Собирова большие планы на будущее. Можно смело предположить, что свойственные ему целеустремленность и упорство, будут способствовать достижению намеченных целей.

Соб. корр.

Год охраны окружающей среды и «зеленой» экономики

БРАКОНЬЕРЫ ЗАДЕРЖАНЫ

Сотрудники батальона патрульно-постовой службы УООП СОБ УВД Джизакской области провели рейд на территории Айдаро-Арнасайской системы озер. В ходе мероприятия был задержан И. О., житель махалли Гулзор Мирзачульского района, занимавшийся незаконной ловлей рыбы.

К моменту задержания он успел поймать 15 карпов и пару змееголов. В отношении браконьера составлен соответствующий протокол. В садке И. С., жителя махалли Янгидала, также вышедшего на незаконную рыбалку на самодельном плавсредстве, обнаружено 14 карпов. Это лишь два примера борьбы с браконьерами. Контроль за водоемами в период нереста рыб усилен.

В ходе оперативно-профилактических мероприятий в Фаришском, Арнасайском и Зафарабадском районах, граничащих с системой вышеупомянутых озер, задержаны и привлечены к административной ответственности пять граждан. На них наложен штраф в размере 17 миллионов 375 тысяч сумов. Кроме того, еще четверо браконьеров

привлечены к уголовной ответственности.

Изъято 256 килограммов рыбы, 2 лодки, 2 электрические удочки, 4 аккумуля-



лятора, охотничье ружье, 16 рыболовных сетей. На штрафстоянку помещены 6 автомашин и 2 мотоцикла.

Жителям и работникам рыбхозов разъясняются последствия незаконного лова для водной фауны.

Алижон АБДУСАТТОВ,
соб. корр.

Джизакская область.

MA'RIFATLI YOSHLAR — MILLAT FAXRI

Yangi O'zbekiston – obod va farovon, demokratik mamlakatimizni barpo etishda yoshlarning alohida o'rni bor. Ular vatanparvarligi, bilimdonligi, g'ayrat-shijoati, tashabbuskorligi bilan tom ma'noda Uchinchi renessans ijodkorlaridir. Zero, yurtimizda yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy hamda umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga yetkazishga qaratilgan islohotlar zamidida ham shunday ulug' muddao mujassam.

Ma'rifat – kishilarning ongi, bilimi va madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya. U tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli bilimlar, ma'lumotlar majmuasini ham bildiradi. Ma'rifat ilm-u urfon ma'nosida ham ishlatiladi. Ma'rifat ma'naviy qaramlikni bartaraf qiladi, insonga kuch-qudrat ato etadi. U kishilarni jaholatdan qutqaradi, yomonliklardan qaytaradi, yaxshi xulq va odob egasi bo'lishga yordam beradi. Ma'rifatli kishilardan tashkil topgan jamiyat ravnaq topadi, kelajagi porloq bo'ladi. Ma'rifatni hayotga singdirish maorif tizimi orqali amalga oshiriladi. Tasavvufda ma'rifat ruhiy kamolotga erishuvning asosiy bosqichlaridan biri sifatida talqin etiladi.

Butun dunyoda yoshlar har bir davlatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy boyligi, sayyoramizda farovon hayot va yuksak taraqqiyot barqaror bo'lishi uchun yangi g'oyalar va ijodiy ruhdagi sa'y-harakatlarni amalga oshiradigan beqiyos kuch hisoblanarkan, ularning ma'rifati hamisha e'tibor markazida bo'lib qolaveradi. Hozirda mamlakatimiz yoshlarini mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasb-hunarlariga o'rgatish, jahon yoshlariga namuna bo'lgudek go'zal tarbiya va bilim berish, tashabbus va ilmiy intilishlarini ro'yobga chiqarish borasida ham muhim qadamlar tashlandi. Iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Prezident maktablari, Temurbeklar maktabi, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyati yo'lga qo'yildi. Har yili minglab bitiruvchilar maktablarni oltin, kumush medallar bilan yakunlamogda. Oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida eng yuqori ball

to'plagan 200 nafar yigit-qizlar uchun Prezident granti joriy etildi. Imtiyozli ta'lim kreditlari ajratilib, xalqaro ta'lim dasturlari bo'yicha eng yuqori ballarni to'plagan iqtidorli yoshlarga alohida e'tibor berilmoqda. Yosh olimlar uchun tanlovlar, grant mablag'lar, startap loyihalar, oliy o'quv yurtlariga o'qishni ko'chirishdagi o'zgarishlar, qulay test jarayonlari, bir vaqtning o'zida 5 ta OTMda bilimini sinab ko'rish imkoniyati yaratilmoqda.



► **O'tgan yili yurtimiz yoshlari «TOP-500» talik oliygohlarga kirish bo'yicha Markaziy Osiyoda 1-o'rinni egal-ladi. Bugungi kunda 30 nafar yigit-qiz dunyodagi «TOP-10», 500 nafari «TOP-100» va 1 ming 500 nafari «TOP-300»-dan joy olgan nufuzli universitetlarda tahsil olmoqda.**

► **So'nggi yetti yilda boshqaruv kadrlari tarkibi ancha yosharib, 40 yoshgacha bo'lgan rahbarlar ulushi 37 foizdan 65 foizga oshdi.**

Yuksak bilimli, dunyoqarashi keng, zamonaviy fikrlaydigan, texnologik savodxon yoshlari ko'p bo'lgan yurtida tinchlik va taraqqiyot, o'zaro jipslik hamisha barqaror bo'ladi.

Yoshlarimizga sifatli ta'lim va tarbiya berish, zamonaviy kasb va hunarlar, xorijiy tillarni o'rgatish, hayotda munosib o'rin topishi uchun zarur sharoitlar yaratish eng asosiy vazifamiz va burchimizga aylangan.

Shavkat MIRZIYOYEV



► **O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti «Yoshlar – 2030» strategiyasini jadal amalga oshirayotgan 10 ta davlat qatoriga kirdi. Yoshlar taraqqiyot indeksida mamlakatimiz bu borada eng tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan davlat, deb topildi.**

► **Buxoro shahri – Turkiy dunyo yoshlari poytaxti, Toshkent shahri – Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi yoshlari poytaxti maqomini oldi.**

tinchligi, yaxshi nom qoldirishning chorasini xohlasangiz, sizning ilojingiz, avvalo, kasbi maorifdir. Qobiliyatlarini tahsil uchun o'qishga yuboring», deya bildirgan fikrida millat va Vatan kelajagi, yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qanchalar kuyunchaklik bilan yondashganini ko'rishimiz mumkin. Va bu qarashning qiymati, oradan qancha yillar o'tsa-da, o'z ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda.

Mustaqil fikrini baralla ifodalay oladigan, zamonaviy ilm-fan va kasb-hunarlarini puxta egallagan, o'z yurti, xalqiga fidoyi, ajdodlari boshlagan xayriy ishlarni davom ettirishga qodir bu avlod ong-u tafakkurini yoritgan ma'rifat nurlari, ularning kelajagi, ertasini nurafshon aylab, millat faxriga aylanishiga asos bo'lishiga shubhamiz yo'q. Bunda ular davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, «... odamzod hayotda munosib o'rin topishi, el-yurtning hurmati va e'tiboriga sazovor bo'lishi uchun milliy va umuminsoniy qadriyatlarni egal-lab, doimo oldinga intilib yashashi, izlanish va o'rganishdan aslo to'xtamasligi kerak».

Gulnoza TURG'UNBOYEVA, o'z muxbirimiz.



Maqolani qoraqalpoq tilida ushbu QR-kod orqali o'qishingiz mumkin.



Xo'sh, yoshlarning bilimi, ma'naviyati va dunyoqarashini yuksaltiruvchi muhim manba nima? Buyuk shoir va mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy yozganidek, «Kitob – beminnat ustoz, bilim va ma'naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai» hisoblanadi.

Kitob nafaqat bilim va ma'naviy quvvat berib, insonni komillikka yetaklaydi, balki hayot qoidalari, yashash san'atini o'rgatuvchi mayoqdir. Kitob o'qigan inson o'zining asosli mulohazasi, bilimi, yuksak tafakkuri, dunyoqarashi kengligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Bundan ko'rinadiki, insonning bilim, tarbiya, kasb-hunarli yetuk shaxs sifatida jamiyatda o'z o'rnini topishi va, albatta, baxtli bo'lishida kitob beminnat do'stidir.

Kelajak avlod taqdiri haqida qayg'urgan ma'rifatparvar jadid bobomiz Abdurauf Fitrat «Agar dingga, Vatanga, molg'a, jong'a, avlodga muhabbatingiz bo'lsa, agar dinning xalos bo'lishi, shariatning rivoji, Vatan obodligi, avlodning

XIZMATLARDA

«ENDI O'ZBEKISTON FUQAROSIMAN!»

– Men va onam O'zbekistonga kelib, shu yerda yashayotganimizga o'n besh yildan oshdi, – deydi Nuriddin Nasirov. – Asli qozog'istonlikmiz, mahalla-ko'y, qo'ni-qo'shni bilan munosabatlarimiz yaxshi. Ochig'ini aytsam, ba'zan fuqaroligim yo'qligidan ko'nglim o'ksigan vaqtlar bo'lgan. Shukrki, orzuim amalga oshdi. Endi O'zbekiston fuqarosiman. Onamni ham fuqarolikka qabul qilish bo'yicha jarayonlar davom etmoqda. Buning uchun Prezidentimizdan minnatdorman.

Joriy yilning o'tgan davrida poytaxtimizning Bektemir tumani-da Nuriddin Nasirov singari 11 nafar fuqaroligi bo'lmagan shaxsga fuqarolik berildi. Bu so'nggi yillarda mamlakatimizda inson manfaatlarini, uning qadr-qimmatini, huquq va erkinliklarini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanganidan yaqqol dalolatdir.

Shu o'rinda Bektemir tumani IIOFMB M va FRB xodimlari aholini fuqarolikni tasdiqlovchi hujjatlar bilan ta'minlash, migratsiya jarayonlarini qonun talablaridan kelib chiqqan holda amalga oshirishdek muhim yo'nalishlardagi ishlarga munosib hissa qo'shib kelishayotganini ta'kidlash o'rinni. Xususan, joriy yil boshidan hozirga qadar sohaviy xizmat

xodimlari tomonidan 7477 nafar yurtdoshimizga O'zbekiston Respublikasi shaxs guvohnomasi (ID-karta), 2855 nafar fuqaroga esa xorijga chiqish biometrik pastorti topshirildi.

– Xorijiy davlatlar fuqarolari hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning mamlakatimizda bo'lish qoidalariga rioya etishlarini nazorat qilishda boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yganmiz, – deydi tuman IIOFMB M va FRB boshlig'i, mayor Elmurod Allamuratov. – Ushbu hamkorlik doirasida olib borilgan tadbirlarda respublikamizda joriy etilgan tartib-qoidalarga rioya qilmaganlik holatlari bo'yicha 31 ta ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirilib, 7 nafar shaxs deport qilindi. Shuningdek,



1555 nafar fuqaro doimiy ro'yxatga olindi. O'qish, ishlash, davolanish hamda mehmon sifatida kelgan 973 nafar kishi vaqtinchalik ro'yxatga qo'yildi.

E'tiborli jihati, murojaatchilar bo'limdagi xizmat ko'rsatish jarayonlari tartib va tezkorlikda amalga

oshirilishidan mamnun. Bunda, albatta, xizmat xonalarining zamonaviy jihozlar hamda kompyuter texnikalari bilan ta'minlangani qo'l kelmoqda.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

SOHA FIDOYISI

O'ZIGA NISBATAN TALABCHAN



Mamlakatimiz energetika tizimida muhim o'rin tutadigan Shirin shahrida oltita mahalla mavjud. «Do'stlik» shahar markazidagi mahallalardan biri. Bu yerda savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari, maktab va maktabgacha ta'lim tashkiloti, shifoxona, davlat muassasalari joylashgan. To'rt mingga yaqin turli millatlarga mansub aholi istiqomat qiladi.

Asli qo'shni boyovutlik bo'lgan profilaktika inspektori, kapitan Bekzod Azizov xizmat faoliyatini 2016-yilda Uchinchi mintaqaviy hudud 13-tergov hibsonasida nazoratchi vazifasida boshlagan. 2019-yildan boshlab esa Shirin shahar IIB HPBda profilaktika inspektori lavozimida faoliyat ko'rsatib keladi.

Yaqin-yaqingacha «Do'stlik»da uch-to'rtta notinch oila bor edi. Jumladan, ulardan birida keksa onaxon o'g'li bilan istiqomat qilardi. O'g'il ichkilikka berilgan. Qayerlardandir ichib kelib, kechasi onasi bilan janjal qilishni odat qilgan. Bekzod Azizov shu xonadonni qattiq nazoratga oldi. Yigitni qurilish tashkilotiga ishga joylashtirdi. Dastlab ichkilikboz yigitning ishga ko'nikishi qiyin kechdi. Chamasi olti oylardan keyin ancha o'ziga kelib qoldi. Bekzod Azizov uni oila qurishga da'vat qildi. Ko'p o'tmay, yigit o'z tengini topdi. Kamxarjgina qilib to'y o'tkazishdi. Shundan so'ng yigitning hayoti yanada ijobiy tomonga o'zgardi. U oila mas'uliyatini his qila boshladi. Profilaktika inspektori esa o'z ko'magida bir oilaga xushnudlik kirib kelganidan mamnun bo'ldi.

Mahallada kriminogen vaziyat barqarorligini ta'minlash ko'plab omillarga bog'liq. Bu nafaqat nizoli oilalarni sog'lomlashtirishni, balki mahallaga keldi-ketdini, muqaddam sudlangan, jinoyatga moyil shaxslar bilan ishlashni, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush

tarzini keng yoyishni, keksalarning boy hayotiy tajribasidan samarali foydalanishni ham ko'zda tutadi. Kapitan Bekzod Azizov xizmat faoliyatida mana shu jihatlarga doim ustuvor masala sifatida e'tibor qaratadi. Xonadonmaxonadon yurib, aholi muammolarini o'rganaadi. Ma'lumotlarni tahlil qiladi. Mahalla raisi, shahar hokimligi mutasaddilariga mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflar beradi. Uning mahalla hududiga zamonaviy videokuzatuv kameralarini o'rnatish taklifi ana shulardan biridir. Natijada qisqa vaqtda atrofdagi ko'chalarga, ko'p qavatli uylar oralig'iga 25 ta videokuzatuv kamerasi o'rnatildi. Ularning ikkitasi holatini harakatga qarab 360 gradusgacha o'zgartira oladi. Bir nechtasi «Face ID» tizimi orqali shaxsni aniqlash xususiyatiga ega. Ushbu kameralar mahalla osoyishtaligini saqlashda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Xususan, tungi paytlarda yosh-yalanglarning sayoq yurishi, bezorilik holatlari kamaydi.

Kapitan Bekzod Azizov o'ziga nisbatan talabchan bo'lgani uchun o'qib-o'rganish, izlanishda davom etmoqda. Hozirda u O'zbekiston Milliy universiteti talabasi. Qolaversa, ibratli oila sohibi sifatida turmush o'rtog'i bilan birga 2 nafar farzandni tarbiyalamoqda.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.



Урок духовности и просвещения

ВЫСОКОДУХОВНАЯ МОЛОДЕЖЬ – ГОРДОСТЬ НАЦИИ

Молодежь – движущая сила общества. В Узбекистане, где более половины населения составляют граждане до 30 лет, роль молодого поколения в прогрессе страны приобретает особое значение. Всесторонне развитые юноши и девушки – надежная опора и фундамент Нового Узбекистана.

В контексте современного мира воспитание высокодуховной молодежи – приоритетная задача. Оно включает формирование у подрастающего поколения уважения к общечеловеческим и национальным ценностям, любви к Родине, стремления к созиданию.

Духовность – основа, определяющая содержание и качество всех политических и социальных отношений в обществе. На рас-

сширении духовных исследований, Республиканский центр духовности и просветительства и его подразделения на местах.

Долгосрочные приоритеты страны определяет Стратегия «Узбекистан–2030». Молодежная политика занимает в ней центральное место.

Документом предусмотрены меры по развитию системы образования. В настоящее время в стране функционируют 201

заведение и проходят стажировки в ведущих мировых университетах благодаря поддержке Фонда «Эл-юрт умиди». **Для тех, кто поступает в престижные зарубежные университеты, но не имеет полной стипендии, предусмотрена система помощи от Фонда. Коммерческие банки начнут выдавать молодым людям льготные кредиты до 20 000 долларов на обучение в вузах из топ-300.**

Узбекистана ставятся исторические спектакли, посвященные нашим великим предкам, создаются 50 художественных фильмов, посвященных славному прошлому Родины.

В центре внимания – повышение читательской культуры юношей и девушек. Важным событием стало издание многотомных сборников «Туркий адабиёт дурдоналари», «Мустақиллик даври навоийшунослиги», «Қорақалпоқ адабиёти дурдоналари», «Мард аскарга совға» и др. В центре Ташкента создана Аллея литераторов, где у памятников поэтам и писателям проходят просветительские мероприятия, отмечаются юбилеи выдающихся



ширенном заседании Республиканского совета по духовности и просветительству глава нашего государства подчеркнул, что она укрепляет единство народа, способствует росту мощи государства. При этом «сфера духовности должна опережать на десять шагов другие сферы, духовность должна

высшее учебное заведение, 598 техникумов. Созданы Президентские, творческие и специализированные школы. Запускаются новые программы, электронные платформы с целью повышения результативности учебно-воспитательной работы на всех этапах образования. В результате этого

Осуществляются меры по доведению уровня охвата молодежи высшим образованием не менее, чем до 50 процентов.

В Академии государственного управления ежегодно 100 молодых людей будут обучаться по программе «Лидеры будущего». Выпускники станут основными кандидатами на руководящие должности.

На основе принципа «махалла – район – область – республика» успешно реализуются концепции «Новый Узбекистан – просвещенное общество», «Молодежь – созидатели Нового Узбекистана». Цель – дальнейшее укрепление связи между образованием и воспитанием; поддержка талантов и инициатив; укрепление здорового образа жизни и др.

Духовно-нравственному воспитанию молодежи способствует и развитие культурной и просветительской инфраструктуры. Так, придан новый импульс деятельности учреждений культуры. Созданы 11 новых музеев, 2 театра, 28 детских школ музыки и искусства, 5 новых высших учебных заведений. Молодежь активно вовлекается к постижению национальной культуры и искусства. С ее участием проводятся фестивали ремесленничества, «Лазги». Организованы центры макома, искусства бахши и аскии. На сценах театров

творческих личностей. Возрожден знаменитый Зааминский семинар, где молодые мастера слова представляют свои произведения.

В системе органов внутренних дел особое внимание уделяется духовно-нравственному воспитанию сотрудников. Цель – укрепить у стражей порядка такие качества, как ответственность, инициативность, искреннее осознание долга перед Родиной и неукоснительное соблюдение Кодекса профессиональной культуры и служебной дисциплины сотрудников ОВД.

Большое значение имеет институт наставничества, который обеспечивает передачу опыта и традиций от старшего поколения молодым сотрудникам. Помимо этого, в ОВД внедрено проведение уроков духовности и просвещения, смотров-конкурсов «Лучший читатель», интеллектуальных игр «Заковат» и других мероприятий, способствующих всестороннему развитию сотрудников, расширению их кругозора и формированию высоких моральных качеств.

Гармонично развитая молодежь – стратегический ресурс страны. Это поколение, активно участвующее в строительстве Нового Узбекистана, способное вести страну к процветанию.

Радик ТУМПАРОВ,
кандидат педагогических наук.

● **Узбекистан вошел в десятку государств, наиболее активно реализующих Стратегию ООН «Молодежь – 2030».**

● **По индексу развития молодежи Узбекистан признан самым динамично развивающимся государством.**

● **Республика в прошлом году заняла первое место в Центральной Азии по количеству студентов, поступивших в топ-500 университетов мира.**

превратиться в новую силу, в новое движение».

Масштабная работа ведется в стране в области духовно-нравственного воспитания молодежи, повышения ее активности в реализации благородной идеи «От национального возрождения – к национальному прогрессу». Для системной деятельности в данном направлении созданы Целевой фонд по поддержке сферы духовности и творчества, Институт со-


учащиеся Узбекистана одерживают победы на престижных предметных олимпиадах. В прошлом году 55 ребят завоевали 8 золотых, 15 серебряных и 32 бронзовые медали по математике, химии, биологии, физике и информатике. В сфере культуры и искусства 383 человека удостоились Гран-при, а 1359 заняли первые места на авторитетных конкурсах.

Многие одаренные молодые люди Узбекистана получают обра-



QO'SHSAHIFADA —

1973-yilning 28-dekabrida tashkil etilgan Jizzax viloyati 21,1 ming kilometr kvadrat maydonga ega. Aholisi 1,5 million nafardan oshiq. Qozog'iston va Tojikiston respublikalari, shuningdek, Sirdaryo, Samarqand, Navoiy viloyatlari bilan chegaradosh.



Janubini Turkiston, g'arbini Nurota tog' tizmalari, shimoli va sharqini Mirzacho'l va Qizilqum cho'l-lari egallagan. Sangzor va Zominsoy eng yirik daryolaridir. Oltin, kumush, volfram, qo'rg'oshin, rux, temir, molibden, marmar, vollaistonit, bazalt, granit, korund, ohak kabi foydali qazilmalar bor.

PATRUL SHAHAR KEZADI

XIZMATDA SERGAK

Viloyat IIB JTSB Patrul-post xizmati batalyoni xodimlari 50 ta yo'nalishda uch navbatda uzluksiz patrullikni amalga oshirmoqdalar. Natijada joriy yilning o'tgan davrida ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlari xodimlari bilan birgalikda 39 ta jinoyat fosh qilindi.

Shuningdek, 7 nafar qidiruvdagi shaxs ushlanib, 4 nafar be-

darak yo'qolgan fuqaro topildi. Turli huquqbuzarliklar sodir etgan 5 mingdan ziyod shaxsga nisbatan ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirildi. 474 kishi hushyorxonalariga, yashash joyiga ega bo'lmagan 156 nafar shaxs reabilitatsiya markaziga joylashtirildi. 406 fuqaroning ov qurollarini saqlash qoidalariga amal qilishlari o'rganildi.



Suratda: viloyat IIB JXX JTSB PPX batalyoni xodimlari, safdorlar Jasur Allanov va Ibrohim Mahmudov.

SOHA FIDOYISI



ISHNING KO'ZINI BILADI

G'allaorol tumanining «Oqtom» mahallasida istiqomat qiluvchi D.E. Navbatchilik qismiga qo'ng'iroq qilib, o'ziga tegishli do'kondan pul hamda oziq-ovqat mahsulotlari o'g'irlanganini ma'lum qildi. Voqea joyiga yetib kelgan tergov-tezkor guruhi jinoyatni ochish choralari ko'ra boshladi. Xususan, tuman IIB Ekspert-kriminalistika guruhi katta eksperti, mayor Umidjon Abilov do'kondan kaft va barmoq izlari nusxalarini oldi va daktiloskopik tekshiruvdan o'tkazdi.

Tahlillar o'g'rilik jabrlanuvchining mahalladoshi Q.K. tomonidan sodir etilganini ko'rsatdi. Tabiiyki, rad etib bo'lmay dalillar qarshisida ojiz qolgan gumon qilinuvchi aybini tan oldi. Mayor Umidjon Abilov joriy yilning o'tgan davrida 5 ta jinoyatni ochishga muvaffaq bo'ldi. Xuddi shunday, bu davrda 30 dan ortiq turli ekspertizalar o'tkazdi.

Lavhamiz qahramoni huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari o'rtasida o'tkazilayotgan sport musobaqalarida ham faol qatnashib kelmoqda.

KIBERXAVFSIZLIK

YUVOSH OTNING TEPKISI

«Treyding» so'zini eshitsa, Zomin tumanining «Qo'rg'on» mahallasida istiqomat qiluvchi Dilmurod (ismi o'zgartirildi) ning labiga uchuq toshadigan bo'ldi. Nega deysizmi? Hammasi ijtimoiy tarmoqda tanishgan bir kimsa pulini karrasiga ko'paytirib berishni va'da qilib, uning 8 million 534 ming so'm mablag'ini bank plastik kartasiga o'tkazib olishdan boshlandi. Keyin firibgar Dilmurodning profilini bloklab qo'ydi.

Jabrlanuvchi telegram guruhi nomidagi «halol daromad» so'zlari, shuningdek, guruh ma'murining to'g'rilik va shukur haqida tez-tez yozishi uni chalg'itganini bildirdi.

Aynan shu firibgar ayni shu usulda Forish tumanining «Osmonsoy» mahallasida yashovchi N.H.ning 2 million 100 ming so'mini, Sharof Rashidov tumanining «Sovungarlik» mahallasida istiqomat qiluvchi D.O.ning 2 million so'mini o'zlashtirgan.

Qisqasi, jabrlanuvchilarning murojaatlari asosida viloyat IIB TQX Kiberxavfsizlik bo'limi tomonidan o'tkazilgan tezkor tadbirlar natijasida ushbu jinoyatlar Buxoro shahrida yashovchi A.A. tomonidan sodir etilgani aniqlandi. Dastlabki surishtiruvlar davomida gumon qilinuvchi treyding yo'li bilan pul ko'paytirib berishni va'da qilib, respublikamizning qariyb barcha hududlarida yashovchi o'nlab fuqarolarni chuv tushirgani ayon bo'ldi.

Qiziq jihati, gumon qilinuvchi har qanday insonda xushmuomala, yuvosh, birovga yomonlik sog'inmaydigan kishi sifatida tasavvur uyg'otadi. Shuningdek, u qachondir qo'lga tushishini bilgani, lekin pul ko'ziga cho'g'dek ko'rinib, o'zini to'xtata olmaganini tan oldi. Bunaqa holatlarda «Nafsinu tiymagan hayitda o'lar», deyisharmidi?..

Ma'ruf QARSHIBOYEV,
katta leytenant.



JIZZAX VILOYATI

YOSHLAR – KELAJAK BUNYODKORI

ELNING ISHI – ERNING BO'YNIDA

G'oz' oralayotgan Jamshid Yangiboyev dala chekasida to'xtagan profilaktika inspektorining «Nexia»si tomon shoshildi. Leytenant salom-alikdan so'ng maqsadga ko'chdi. Qo'shni mahallada qoramol o'g'irlanganini aytib, begona shaxs ko'rgan-ko'rmagani yoki shubhali hodisaga guvoh bo'lgan-bo'lmagani bilan qiziqdi. Ketar chog'i doimgidek ogohlantirdi: «Chorva mollarini qarovsiz qoldirmang!»...

Do'stlik tumani IIB JXX HPB profilaktika inspektori, leytenant Dilshod Tursunov yosh xodim bo'lsada, o'ziga birlashtirilgan «Qahramon» mahallasida vaziyatni to'liq nazoratga olishning uddasidan chiqyapti. 2024-yil hamda joriy yilning o'tgan davrida mahallada

jinoyat sodir etilmagani buning tasdig'i bo'ladi.

– Xizmat faoliyatimda qandaydir yutuqqa erishgan bo'lsam, barchasida ustozlarim, xususan, birinchi murabbiyim, podpolkovnik Jasur Tilovov hamda har qanday vaziyatda ko'magini ayamaydigan podpolkovnik Salohiddin Anqayev, kapitan Anvar Xoliqovlarning hissasi katta, – deydi profilaktika inspektori. – Ulardan juda minnatdorman.

Mahallada ijtimoiy-profilaktik tadbirlarni izchillik bilan amalga oshirilishi natijasida joriy yilning o'tgan davrida ishsiz 18 nafar yoshga 2 sotixlik issiqxonalar qurib berildi. 32 nafar ehtiyojmandga kam foizli kredit ajratilishida ko'mak ko'rsatildi. 55 kishi ish bilan ta'minlandi. Bu yo'nalishdagi ishlar davom etmoqda.



«QORADORI – 2025»

Do'stlik tumanida o'tkazilgan tezkor tadbir davomida 360 dona psixotrop moddani o'zga shaxsga yetkazib bergan Navoiy viloyatining Karmana tumanida yashovchi Sh.R. qo'lga olindi. Surishtiruv davomida u kuchli ta'sir qiluvchi vositalarni Toshkent shahri Shayxontohur tumanida istiqomat qiluvchi I.I.dan olganini bildirdi.

O'z navbatida, viloyat IIB TQX JQB tezkor xodimlari tomonidan olib borilgan tadbir natijasi-

TEZKOR TADBIR DAVOMIDA

da I.I. Toshkent shahrida ushlandi va 16 turdagi 2 ming 684 dona inson ruhiyatiga kuchli ta'sir qiluvchi vositasi daliliy ashyo sifatida olindi.

Yana bir misol. Paxtakor tumanining «Mingchinor» mahallasi hududida «Paxtakor» mahallasida yashovchi D.A. o'zga bir shaxsga 500 dona kuchli ta'sir qiluvchi dori vositasini bergan vaqti ushlandi. Tezkor surishtiruv davomida gumon qilinuvchi psixotrop moddalarni Toshkent shahri Uchtepa tumanida istiqomat qiluvchi T.P.dan olganini aytdi.

Ushbu ma'lumot asosida o'tkazilgan tezkor tadbir davomida 4 xil turdagi 5 ming 200 dona psixotrop moddani 1 ming 500 AQSH dollariga sotgan T.P. ashyoviy dalillar bilan ushlandi.

Ta'kidlash kerak: viloyatda «Qoradori – 2025» tadbirlari doirasida shu kabi 181 ta jinoyat fosh qilinib, 17 kilogramm 564 gramm marixuana, ko'knor, heroin, opiy kabi giyohvandlik moddalari va psixotrop vositalari aniqlandi.



Qo'shsahifa materiallarini o'z muxbirimiz Alijon ABDUSATTOROV tayyorladi.

BIZ KORRUPSIYAGA QARSHIMIZ!

DARD USTIGA CHIPQON

Yo'l yoqasida turgan YPX xodimini ko'rishi bilan S.Q. ning oyoqlari beixtiyor tormozga uzaldi. Sekinlashtirmasinmi, ichgan axir, to'xtat-sa tamom, otning kallasidek jarima to'lashi kerak, guvohnomasidan ayrilishi ham tayin.



«Damas»ning birdan sekinlashishi, qolaversa, avtoulov egasining beo'xshov tarzda gavdasini tik tutishga urinishi viloyat IIB JXX YHXB Yo'l-patrul xizmati batalyoni 1-safarbar guruhi yo'l-patrul xizmati katta inspektori, serjant Sherdor Ubaydullayevning e'tiborini tortmasdan qolmagandi. Shu bois u to'xtash ishorasini ko'rsatdi.

Muloqot chog'ida YPX inspektori haydovchining spirtli ichimlik ta'sirida ekanini sezdi va uni «Alkostop 8000 S» qurilmasi yordamida tekshiruvdan o'tkazdi. Uskunadagi ko'rsatkichlar haydovchi shirakayf ekanidan darak berardi. O'z navbatida, serjant

ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirishga kirishdi. Javobgarlikka tortilishi tayinligini sezgan qoidabuzar esa xodimga 3 million so'm miqdorida pora taklif qildi. Uning maqsadi ma'muriy bayonnomaning oqibati yengilroq huquqbuzarlik sifatida rasmiylashtirish hamda avtoulovni jarima maydoniga joylashtirmaslik edi.

IIV SHXBB viloyat bo'yicha bo'limi hamda prokuratura xodimlari ishtirokida o'tkazilgan tezkor tadbir natijasida, YPX katta inspektoriga 3 million so'mni pora tariqasida bergan S.Q. xolislar ishtirokida ushlandi. Bunaqa paytlarda «Dard ustiga chipqon bo'ldi», deyisharmidi?

САДОҚАТДАН БОШЛАНГАН ЙЎЛ



Истеъфодаги майор Бўри Шодиевнинг ҳаётий тажрибала-ри бугун ички ишлар органларида фаолият юритаётган шо-гирдларига ҳам асқатмоқда. У ёшларга тўғри йўл кўрсатиш, қийин дамларда оқилона маслаҳат беришдан эринмайди.

Лавҳамиз қаҳрамони ички ишлар органларидаги хизмат фаолиятини Термиз шаҳар ИИБ бошлиғининг шахсий таркиб билан ишлаш хизмати бошлиғи лавозимида бошлаган, вилоят ИИБ ҳамда Музработ туманларида ҳам самарали хизмат қилган.

Бўри Шодиевнинг 4 нафар фарзанди отаси каби эл-юрт хизматига камарбаста бўлиб, турли йўналишларда тинчлик ва хавфсизликни таъминлашда иштирок этиб келмоқда. Тўнғич фарзанди Бахтиёр Шодиев – истеъфодаги майор, вояга етмаганлар билан ишлаш бўйича инспектор бўлиб хизмат қилган. Иккинчи ўғли Ўрозмурод Шодиев – подполковник унвонида жиноят қидирув бўлимида хизмат қилган. Учинчи ўғли Шухрат эса ёнғин хавфсизлиги хизматида фаолият юритиб, фуқаролар хавфсизлигини таъминлашга ўз ҳиссасини қўшган.

Бўри Шодиев ҳозирги кунда 10 нафар набираси ва 9 нафар чевараларининг меҳри ва эътибори бағрида ҳаёт кечирмоқда. Бугунги тинч, осуда ҳаётни кўриб, кекса умрида хушнудлик билан яшамоқда. Унинг фаол ҳаёт

тарзи, оилавий ва касбий тарбиядаги муваффақияти бугунги ёшлар учун ҳаётий дастуруламалга айланмоқда.

— Отам бутун ҳаётини эл-юрт хизматига бағишлаган инсон. У киши ички ишлар органлари тизимида хизмат қилган йилларида ҳамisha ҳалоллик, садоқат ва меҳр билан ишлаган. Унинг меҳнатсеварлиги ва масъулият ҳисси биз, фарзандлари учун доимий намуна бўлиб келди. Мен ҳам ички ишлар органларида ишлаганимда, кўп ҳолатларда отамнинг маслаҳатларига таянардим. Падари бузрукворимдан олган энг муҳим дарсим – одамларга ҳурмат билан муносабатда бўлишни ўргандим. Отам ҳар қандай шароитда ҳам инсон қадрини улуғлаган, — дейди ўғли истеъфодаги майор Бахтиёр Шодиев.

Қаҳрамонимиз муносиб хизматлари учун фаолияти давомида бир неча марта мукофотланган. Меҳнат фахрийси саналади. I, II, III даражали «Бенуқсон хизматлари учун» кўкрак нишони билан тақдирланган.

Феруза РАҲМОНҚУЛОВА,
ўз мухбиримиз.

Сурхондарё вилояти.

КИНОЛОГИЯ ХИЗМАТИ

МЕНИНГ СОДИҚ ДЎСТИМ

Кинология хизмати доимий тарбия ва парваришни, содиқ дўстлик ва хавфли вазифаларга шайликни талаб қиладиган мураккаб фаолиятдир.

Самарқанд вилояти ИИБ ЖХХ ЖТСБ Кинология бўлинмасида ҳам хизмат итлари билан жараёнлар қизғин кечади. Дейлик, сафдор Ҳасан Темировнинг ёнида чаққон ва сергак ит «Симба» ҳамроҳ. Улар учун ҳар бир кун оддий, аммо масъулиятли бошланади. Оддий бир мисол. Тошкент–Қашқадарё йўналиши бўйлаб кетаётган шубҳали автотранспорт воситаси тўхтатилиб, кўздан кечирилганида, унга гиёҳвандлик моддаси яширилганлигини «Симба» аниқлади. Ўша кун у қанча инсонларнинг ҳаётини сақлаб қолди, биласизми? Бундай мисоллар кўп.

Сафдор Ҳасан Темиров ҳар йили кинологлар мусобақасида фаол қатнашади. Жорий йилда ҳам Тошкент вилоятида ўтказилган «Dog biatlon» беллашувида «Симба» билан қатнашиб, шахсий биринчилик ва жамоа таркибида 3-ўринни эгаллашга муваффақ бўлди.

Жорий йилнинг 5 ойи давомида бўлинма томонидан вилоятда хизмат итлари ёрдамида 124 та жиноят фош этилишига эришилган. Халқаро тадбирлару анжуманлардан тортиб, тезкор рейдларни уларнинг иштирокисиз тасаввур этиб бўлмайди.



— Бу хизматда ишлаш меҳр, сабр ва масъулиятни талаб қилади, — дейди вилоят ИИБ ЖХХ ЖТСБ Кинология бўлинмаси, ветеринария гуруҳи ветеринар шифокори, лейтенант Жаҳонгир Шокиров. — Итлар бир неча ойлик машғулотлардан ўтиб, профессионал даражада тайёрланади. Кинолог бириктирилган хизмат итининг феъл-атворини билмаса, унга меҳр кўрсатмаса, муваффақиятга эриша олмайди. Қолаверса, хизмат итларининг саломатлиги, овқатланиши ва парвариши фаолият самарадорлигининг асосий омилларидан бири саналади. Шу боис хизмат итларининг тана ҳарорати, юриш-туриши, иштаҳаси ва қўшимча белгилари доимий назоратда бўлади.

Умида МАМАДАЛИЕВА,
ўз мухбиримиз.

Самарқанд вилояти.



OILA – MUQADDAS

Buning uchun muammoli oilalar 3 toifaga ajratildi. Mazkur oilalarda istiqomat qiluvchi fuqarolar, ayniqsa, xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoyalash choralari ko'rildi. Jinoyat sodir etishga moyil shaxslar bilan alohida profilaktik suhbatlar tashkil etildi. Shuningdek, ijtimoiy himoyaga, tibbiy ko'makka muhtojlarga yordam berishga alohida ahamiyat qaratildi.

Shu maqsadda barcha tumanlarda viloyat IIB mas'ul xodimlari tuman Oila va xotin-qizlar, Adliya, fuqarolik holatlarini qayd etish bo'limlari vakillari bilan hamkorlikda olib borilgan o'rganishlar davomida ijtimoiy himoyaga muhtoj, alohida toifaga mansub xotin-qizlari bilan bevosita muloqot qilinib, muammolarini hal etish choralari ko'rildi. Bundan tashqari, o'rganishlar davomida shar'iy nikoh asosida yashab kelayot-

PROFILAKTIK TADBIRLAR SAMARASI

Aholining muammolarini o'rganib, ularga ijobiy yechim topish maqsadida Navoiy viloyati hududida «Sog'lom oila» profilaktik tadbirlari o'tkazildi. Ahamiyatli jihati shundaki, barcha profilaktika inspektorlari hamkorligida o'tkazilayotgan tadbirlarda hududlardagi oilalar, ayollar va yoshlar muammolari o'rganilib, joyida hal etilmoqda. Kelishmovchiliklar bilan murojaat qilganlar yarashtirilib, murosaga keltirilyapti.



gan fuqarolarning nikohini qonuniylashtirish borasida huquqiy tushuntirish ishlari olib borildi.

– Ularga erta turmushning oqibatlarini tushuntir-

dik. Ayni paytda bu qizlar o'qishi, bilim olishi lozim, yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanishlari kerak. Oila qurish masalasi nihoyatda nozik, bu bora-

da shoshma-shosharlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Onalar bilan uchrashuvda zamonamizning ilg'or, yetakchi ayollari faoliyatini namuna qilib ko'rsatyap-

miz. Sog'lom turmush tarzi targ'ibotini yoshlardan boshlasakgina, ko'zlangan maqsadga erishamiz, – deydi viloyat IIB JXX HPB muhim topshiriqlar bo'yicha inspektori, podpolkovnik Maftuna Qurbonova.

Mazkur tadbirlar davomida 2621 ta oila o'rganilib, 266 nafar xotin-qizga ularni tazyiq va zo'ravonlikdan himoyalash maqsadida himoya orderi berildi. Shuningdek, 39 ta nizoli oila yarashtirildi, 22 ta oila a'zolariga esa moddiy, tibbiy ko'mak ko'rsatildi.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

JAZONI IJRO ETISH TIZIMIDA

YOSHLAR – VATAN TAYANCHI

Yoshlar kuni munosabati bilan IIV huzuridagi JIED Birinchi mintaqaviy hudud 24-son tarbiya koloniyasida (Toshkent viloyati) O'zbekiston Yoshlar ittifoqi muassisligidagi «Yosh huquqshunoslar kengashi» nodavlat notijorat tashkiloti raisi Go'zal Tursunmetova hamda boks bo'yicha Olimpiya va Jahon chempioni Shaxram G'iyosov ishtirokida tadbir bo'lib o'tdi.



– Yo'lni to'g'ri tanlash inson hayotida juda muhimdir, – dedi Shaxram G'iyosov. – Bir vaqtlar men ham sizlardek yosh, orzularga to'la edim. Intilish, mehnat va o'ta-onamning duosi tufayli bugungi yuksak marralarga erishdim. Har biringizda shunday kuch, salohiyat bor. Ishoning, to'g'ri yo'l tanlasangiz va maqsad sari qat'iy intilsangiz, kelajagingiz porloq bo'ladi.

Tadbir davomida tarbiya koloniyasida faoliyat yuritayotgan drama va raqs havaskorlik to'garaklari a'zolari o'zlari tayyorlagan sahna ko'rinishlari hamda raqslarni namoyish etishdi. Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat

musiqali teatri san'atkorlari ijrosidagi kuy va qo'shiqlar esa tadbirga yanada ko'tarikiliik bag'ishladi. Shuningdek, R.M.Glier nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabi o'quvchilarining jonli ijrodagi chiqishlari dillarni quvonchga to'ldirdi.

Tadbir davomida o'qish va jamoat ishlarida faollik ko'rsatayotgan tarbiyalanuvchilarga faxriy yorliqlar, esdalik sovg'alari topshirildi. Bu kabi tadbirlar har bir yosh qalbida umid va ishonch uyg'otadi. Chunki yoshlar – Vatan tayanchi, kelajak bunyodkori.

Xondamir XAMRAYEV,
kapitan.

BOR BO'L, OQIBAT!

Xayrli ishlarga bosh-qosh bo'lish, muhtojlarga xayr-saxovat qilish har bir kishiga farzdir. Sababi, bunday amallar insonlar o'rtasida mehr-oqibat rishtalarini bog'lashga xizmat qiladi. Ta'kidlash joizki, bu kabi xayrli ishlarni amalga oshirishda ichki ishlar organlari faxriylari ham munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Xususan, yaqinda Beruniy tumani IIB faxriysi, iste'fodagi katta serjant Yuldashboy Tajimov va uning o'g'li Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV YHXB inspektori, safdor Ulug'bek Qalandarovlar o'z hisobidan Beruniy tumani IIB faxriysi, iste'fodagi kapitan Rajapboy Kadirovga nogironlik aravachasini sovg'a qilishdi. Tadbirida Beruniy tumani IIB rahbariyati va faxriylari ham qatnashdi.

– Yoshim 75 ga to'ldi, shuning yigirma yildan ortiq vaqtini ichki ishlar organlarida xizmatda o'tkazdim. Kasalligim tufayli o'zim harakatlana olmay nogironlik aravachasidan foydalanib kelayotgandim. Oldingisi eskirgani bois yaroqsiz holga kelib qolgandi. Mana bugun yangi aravacha olib kelib berishdi, buning uchun tashabbus ko'rsatganlarga shaxsan o'zim va oilam nomidan cheksiz minnatdorligimni bildiraman, – deydi iste'fodagi kapitan R. Kadirov.

Darhaqiqat, kishining ko'nglini bergan narsasi emas, balki unga bo'lgan e'tibor va mehr-oqibat ko'taradi, deyishadi. Shunday ekan, bunday ishlarga har birimiz hissa qo'shishni esdan chiqarmaganimiz ma'qul.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.



Созидатели будущего

«СБОЯ В РАБОТЕ БЫТЬ НЕ ДОЛЖНО»

Старший инспектор группы информационных технологий центра административной практики УБДД СОБ УВД Сырдарьинской области лейтенант Толибжон Маматкулов с юности проявлял интерес к компьютерным технологиям. После окончания школы обучался в колледже информационных технологий в Гулистане.

Одаренный молодой человек выделялся среди сверстников. Он виртуозно создавал программы на Java, JavaScript, C++. Неустанно работая над собой, Толибжон поступил в Ташкентский университет информационных технологий. Быстро пролетели годы студенчества, и дипломированный специалист в 2020 году стал преподавать в школе. В 2023 году его жизнь круто изменилась.

Он был принят на службу в УБДД СОБ УВД области. Широкое внедрение современных технологий вызвало потребность в таких сотрудниках, как Толибжон.

Задача Толибжона Маматкулова – обеспечить бесперебойную работу автоматизированной системы. Радары, комплексы видеонаблюдения автоматически фиксируют нарушения, содействуют регулированию

потоков движения на дорогах, сопровождению транспортных средств.

– Информация в форме видео- и фотоматериалов оперативно передается в центр. Данный процесс требует постоянного мониторинга, – говорит наш собеседник. – Сбоя в работе быть не должно.

Абдурахмон МУСТАФОКУЛОВ,
соб. корр.

Сырдарьинская область.



Противодействие незаконному обороту наркотиков

МЫ ВЫБИРАЕМ ЖИЗНЬ!

В столичной гостинице «International Hotel Tashkent» состоялось мероприятие, где приняли участие члены Государственной и региональных комиссий по контролю за наркотическими средствами и психотропными веществами, представители международных партнерских организаций, дипломатического корпуса, СМИ.

Координатор Программы CADAP-7 г-н Антонио Гонсалес, представитель Регионального представительства УНП ООН г-жа Саломе Флорес выступили с докладами, подчеркнув, что проблема наркомании и наркопреступности вызывает серьезную обеспокоенность всего мирового сообщества.

В ходе мероприятия в онлайн-формате продемонстрирована церемония уничтоже-

**Путем сожжения
было уничтожено
свыше 2 тонн 135 кг
наркотических
средств.**

В рамках мероприятия состоялись церемонии награждения победителей конкурса видеороликов под девизом «Мы выбираем жизнь!», а также конкурса



**Согласно
данному ООН,
в настоящее время
около 300 миллионов
человек по всему миру
употребляют наркотики, а
число жертв превышает
600 тысяч человек в
год.**

дожников, представленных на конкурс, придавала особый дух мероприятию.

В завершение был продемонстрирован сюжет (тизер) документального фильма «Абсолютное зло», снятого режиссером Элжоном Аббосовым, премьера которого состоится в ближайшее время.

Рафик ЕНИКЕЕВ.
Фото Икрона ХАСАНОВА.



ния наркотических средств, психотропных веществ, сильнодействующих лекарственных препаратов и прекурсоров, изъятых из незаконного оборота на территории Узбекистана в течение прошедшего года.

молодых художников под девизом «Искусство против наркомании!», организованных Национальным центром совместно с Агентством по делам молодежи и Художественной академией. Выставка работ молодых ху-



MUAMMO VA MULOHAZA

BOLALARNI ASRAYLIK

Keyingi paytda xususiy maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatida rivojlanish ko'zga tashlanmoqda. Ota-onalarga qulaylik yaratish va xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash maqsadida xususiy bog'chalarda tarbiyalanuvchilarni avtomashinada olib borish va kelish xizmati yo'lga qo'yildiki, bundan ko'pchilik xursand. Lekin bu jarayonda qoidabuzarliklarga yo'l qo'yilayotgani achinarli.



Yaqinda Chortoq tumani Alisher Navoiy ko'chasida «Damas» rusumli avtomashina to'xtatilganida, salon-

da 20 nafar bog'cha bolasi borligi aniqlandi. Ma'lum bo'lishicha, bu bolalar shu ko'chada joylashgan

xususiy bog'chaga olib ketilayotgan ekan. Mazkur holat yuzasidan haydovchiga nisbatan ma'muriy bayonnoma tuzilib, tegishli tartibda jarimaga tortildi.

Bu bir qarashda, vahima qilishga arziydigan holatga o'xshamaydi. Biroq, biz qachon biror ko'ngilsiz holat ro'y bersa, keyin nadomat chekamiz. Agar haydovchi hushyorlikni yo'qotib yoki ro'paradan kelgan mashina ozgina noto'g'ri harakatlansa, falokat sodir bo'lmasligiga kim kafolat beradi?..

Ota-onalar, tarbiyachilar, shuningdek, keng jamoatchilik vakillari yuqoridagi kabi holatga duch kelishsa, albatta, ichki ishlar organi xodimlariga xabar qilishlari kerak. Zero, xavfsizlik, bolalar sog'ligi, ularni muhofaza etish barchamizning burchimizdir.

Dilshod CHO'LPONOV,
katta leytenant.

Namangan viloyati.

XALQARO HAMKORLIK

CHIN YURTIGA SAYOHAT

IIV Ixtisoslashtirilgan maktab-internati bir guruh o'quvchilari ta'lim sohasida o'zaro hamkorlikni mustahkamlash, Chin yurtida amalga oshirilgan islohotlar bilan yaqindan tanishish, o'zaro tajribalar almashish, o'quvchilarda ekologik madaniyat va tarixiy merosga hurmat tuyg'usini shakllantirish maqsadida joriy yilning 24–28-iyun kunlari Xitoy Xalq Respublikasida bo'lishdi.

Delegatsiya a'zolari dastlab Chendu shahridagi Pandalarni yetishtirish va rivojlantirish markazi, qadimiy Sichuan muzeyida bo'lib, «Kuanchjay



Syanzi» ko'chalari bo'ylab sayohat qilishdi. Shuningdek, Duszhan'yan irrigatsiya tizimi bo'ylab sayr uyushtirildi.

Safarning keyingi qis-

mida delegatsiya Sian shahridagi qadimiy davlat muzeyi va «Buyuk ipak yo'li boshlanishi» muzeyiga tashrif buyurishdi. Ushbu madaniy obyektlar orqali

o'quvchilar Xitoy va Markaziy Osiyo o'rtasidagi tarixiy aloqalar, shuningdek, ulkan sivilizatsiya merosi bilan tanishdilar.

O'z muxbirimiz.

MADANIY HORDIQ

OLAM-OLAM ZAVQ ULASHIB



Yaqinda poytaxtimizdagi «Xalqlar do'stligi» san'at saroyida IIV Madaniyat saroyi ashula va raqs ansambli ijodkorlari tomonidan tashkil etilgan «Dillarda Vatan madhi» deb nomlangan yakuniy hisobot konsert dasturi bo'lib o'tdi.

Konsertda xushovoz xonandalar – Dilnoza Ismiyaminova, Suhrob Hamdamov, Gulyuz, qiziqchilar – Zokir Ochildiyev, Avaz Oxun va boshqa el sevgan san'atkorlarning chiqishlari tomoshabinlarga olam-olam zavq bag'ishladi.

Tadbir davomida ichki ishlar organi safida xizmat qilgan va burchini bajarayotganda vafot etgan xodimlarning oila a'zolariga sovg'alar topshirildi.

Madina QAHHOROVA,
o'z muxbirimiz.

SO'RANG,
JAVOB BERAMIZUY-JOY BILAN
TA'MINLANISH HUQUQI

Savol: Ichki ishlar organlari xodimlarini uy-joy bilan ta'minlash yoki yashash sharoitini yaxshilash qanday shakllarda amalga oshiriladi?

Javob: Quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- xizmat xonadonlari bilan ta'minlash;
- imtiyozli shartlar va narxlar-da ipoteka krediti (turarjoyning dastlabki badali) ajratish asosida turarjoy bilan ta'minlash;
- foizsiz qarz berish;
- «tayyor holda topshirish» shartlarida uy-joy bilan ta'minlash;
- ijaraga olganlik (ijarada turganlik) uchun pul kompensatsiyasini to'lab berish.

Savol: Xodimlar ichki ishlar organlarida xizmatni o'tash davrida qanday asosda uy-joy bilan ta'minlanadilar?

Javob: Qonunchilikda belgilangan me'yor, navbat va imtiyozlarni inobatga olgan holda, umumiy asoslarda davlat tomonidan uy-joy bilan ta'minlanadi.

Savol: Xodimlar uy-joyga yoki yashash sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo'lganlar hisobidan qanday holatlarda chiqariladi?

Javob: Quyidagi holatlarda:

- yashash maydonining qonunchilik hujjatlarida belgilangan ijtimoiy normalariga muvofiq uy-joy bilan ta'minlanganda;
- turarjoy sotib olish (qurish) uchun imtiyozli uzoq muddatli ipoteka krediti ajratilganda;
- xodim yoki uning turmush o'rtog'i shaxsiy uy-joyga egalik qilish huquqiga ega bo'lganda;
- hisobga turganidan so'ng xizmat joyida yoki yangi xizmat joyiga ketganda xizmat uy-joyi berilganda;
- ichki ishlar organlaridan bo'shaganda yoki pensiyaga chiqqanda;
- xodim xizmat majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq bo'lmagan holatda vafot etganida.



Духовно-просветительская работа

ПРЕЕМСТВЕННОСТЬ ПОКОЛЕНИЙ

Встречи поколений способствуют укреплению традиций, передаче бесценного опыта, формированию у молодежи высоких нравственных ориентиров.

В общеобразовательной школе № 14 Гузарского района в рамках духовно-просветительской работы было организовано мероприятие «Встреча трех поколений». В ней приняли участие председатель Совета ветеранов УВД Кашкадарьинской области полковник в отставке С. Исламов, полковники в отставке А. Байраев, А. Ибодов, советник начальника УВД подполковник в отставке З. Обилов, подполковники в отставке Н. Бозоров, З. Кобилов, представители органов образования, районного отделения Республиканского центра духовности и просвещения.



Ветераны рассказали о становлении органов внутренних дел независимого Узбекистана, реформах, проводимых ныне в системе, поделились

воспоминаниями о годах службы.

– Убеждены, молодежь будет достойно продолжать славные традиции, проявлять ответствен-

ность, сопричастность к судьбе Родины, – подчеркнул полковник в отставке С. Исламов.

После беседы почетные гости посетили кружки изобразительного искусства, литературы, иностранных языков, а также спортивные секции, действующие в школе. В рамках мероприятия районным ОВД была организована выставка вооружения и специального оборудования.



В завершение мероприятия группе ветеранов, вносящим существенный вклад в воспитание молодежи, педагогам школы, учащимся, достигавшим высоких результатов, были вручены памятные подарки.

Жалил БАЛИЕВ,
подполковник.

Кашкадарьинская область.

Нет коррупции!

НЕ ДАЛ УЙТИ ОТ ОТВЕТСТВЕННОСТИ

Стремление избежать справедливого наказания толкает некоторых людей на противоправные действия, создавая порочный круг, который лишь усугубляет их положение.

Инспектор ДПС, осуществлявший патрулирование на улице Бердаха Ходжейлийского района, остановил для проверки автомобиль марки Damas. Во время беседы у него возникло подозрение, что водитель А. Р. находится в состоянии опьянения. Проверка на алкотестере подтвердила подозрение. Сотрудник оформил протокол и поместил микровэн на штрафстоянку. Документы он передал инспектору подразделения административной практики УБДД СОБ МВД Республики Каракалпакстан старшему сержанту Азамату Косбергенову.

Через некоторое время А. Р. обратился к старшему сержанту и попросил «спустить дело на тормозах» за 15 миллионов сумов. Старший сержант предупредил, что дача взятки – противоправное деяние, за которое предусмотрена суровая ответственность. Однако нарушитель не унимался.

По данному факту старший сержант А. Косбергенов обратился к руководству. На основе его рапорта сотрудниками ГУСБ МВД по Республике Каракалпакстан совместно с иными правоохранительными органами было проведено оперативное мероприятие. Гражданин А. Р. задержан во время дачи взятки инспектору.

Приведенный случай демонстрирует, что ответственность за подобные деяния неизбежна, и по-другому быть не может.

Турсынбай ОТЕМУРАТОВ,
рядовой.



AJOYIBOT

SUVNING SIZ BILMAGAN SIRLARI

Suv hayotimizning har bir daqiqasida bizga hamroh bo'ladi. Suv sayyoramiz hududining 70 foizini egallaydi. Shu bilan birga, ushbu miqdorning atigi 3 foizi chuchuk suv, ya'ni ichish uchun yaroqlidir. Ammo biz bu element qanday sirni o'zida saqlashini, qayerdan kelganini, uni butun koinotdagi yagona sayyoramizga kim va nima uchun sovg'a qilganini bilamizmi? Ehtimol, bu savollarga javobni faqat suvning o'zi bilar?



Suv kuchli eritgich hisoblanadi. Tabiatda uning tarkibida odatda eritilgan holdagi moddalar (tuzlar, gazlar) mavjuddir. Yerning geologik tuzilishi tarixi va unda hayotning paydo bo'lishi, iqlim va ob-havoning shakllanishida suv muhim ahamiyat kasb etadi. Hech qanday tirik organizm suvsiz hayot kechira olmaydi. Axir, bugungi kunda yer yuzida hamma narsa boshlanganda suv qancha bo'lgan bo'lsa, hozirda ham shuncha-ku. U barcha mavjudotlar tarkibida, tuproqda va havoda bor. Shu bilan birga, suvning o'ziga xos ko'plab xususiyatlari mavjud.

Dunyoda suvdan yumshoqroq va egiluvchan narsa yo'q. U hatto qattiq toshlarni ham yemirish kuchiga ega. Dunyoning ko'plab olimlari suvning xususiyatlarini o'rganishgan. Suv boshqa suyuqliklarga nisbatan fizik va kimyoviy xossalari ko'ra, g'ayrioddiy xususiyatlarga ega. Lekin olimlar nima uchun suvning zichligi noldan past haroratlarda ortib, musbat haroratlarda pasayishini hanuz tushuntira ololganlari yo'q.

Har qanday modda sovutilganda qisqaradi, suv esa, aksincha, kengayadi. Odamlar bu noyob xususiyatdan foydalanishni uzoq o'tmishda bilishgan. Shimoliy

xalqlar havo harorati pasayishidan oldin tosh yoriqlariga suv quyib, qurilish uchun toshlarni bo'lib olishgan. Janubda esa yog'och takozlar tosh yoriqlariga qoqilib, suv bilan to'ldirilgan. Bu takozlar shishib toshni yorib tashlagan. Ko'p o'tmay, olimlar suv jismlarining teshiklarida katta bosim yaratishga qodir ekanligini aniqlashdi. Bir bug'doy donida, uning unib chiqish paytida u 400 atmosferaga yetishi mumkin. Shuning uchun ham nihol asfalt tagidan osongina unib chiqadi.

Ilm-fan hali nimaga sayyoradagi yagona modda faqat suv uch – suyuq, qattiq (muz) va gazsimon (bug') holatda bo'lishi mumkinligiga javob topmagan. Nima uchun barcha suyuqliklar ichida suv eng yuqori sirt tarangligiga ega, nima uchun u yer yuzidagi eng kuchli erituvchi hisoblanadi va qanday qilib o'nlab atmosfera bosimini yengib suv ulkan daraxtlarning tanasiga ko'tarila oladi? Bu kabi savollar ko'p.

Yer yuzida suvsiz hayot bo'lishi mumkin emasligini juda yaxshi bilamiz. Inson yoshiga qarab, organizmining 70–90 foizi suvdan

iborat bo'ladi. Yashash uchun kattalar kuniga taxminan ikki yarim litr suv iste'mol qilishadi va dush yoki hammomni qabul qilib, terini namlash orqali yana bir yarim litrni olishadi.

Sayyoramizda chuchuk suv butun dunyo suv zahiralarning kichik bir qismini tashkil qiladi, xolos. Insoniyat tarixi davomida



bu zahiralari deyarli o'zgarmagan, shu bilan birga, dunyo aholisi doimiy ravishda o'sib bordi. Dunyoda hech qachon hozirgidek ko'p odamlar bo'lmagan. Bugun bu raqam 8 milliarddan ziyodni tashkil etadi. Ammo bugungi kunda ham, agar u insoniyat sivilizatsiyasining shafqatsiz hujumiga duch kelma-

sa, hamma uchun chuchuk suv yetardi. Afsuski, bugungi kunda yer yuzida milliarddan ortiq odam toza ichimlik suviga ega emas. Shu sababli har yili millionlab odamlar suvsizlikdan turli kasalliklar tufayli vafot etadi. Ularning katta qismi bolalardir. Agar bu muammo yechimsiz qolsa, bizning asrimizda suv xalqaro nizolar sababchisiga aylanishi mumkin. Suv bugungi kunda mamlakatlar va xalqlar o'rtasidagi siyosiy muloqotda o'z ifodasini topayotgan asosiy resurs maqomiga ega bo'la boshladi.

Bugun tabiatning eng oliy ne'mati hisoblangan suvni tejash, isrof qilmaslik, undan oqilona foydalanish madaniyatini barchamiz bilishimiz shart. Ko'plab hollarda hamyurtlarimiz suvni behuda sarf qilayotganiga guvoh bo'lamiz. Yozning issiq kunlari shabada essin deb, soatlab uylarimiz oldidagi asfaltga suv sepamiz, mashinalarimizni yaraqlatib yuvish uchun suvni ayamaymiz, uylarimizga basseyin va sharsharalar qurib hammani hayratga solamiz. Biroq bunday huzur-halovatimiz

uchun biz o'zimiz ichadigan toza suvni ishlatishimizni eslatib o'tish foydadan xoli bo'lmaydi. Axir suvni tozalash, zararsizlantirib bizga iste'mol holiga yetkazib berish uchun qancha mehnat va mablag' sarf qilinishi hech kimning xayoliga ham kelmaydi. Bunday vaziyatlarda rivojlangan davlatlar toza ichimlik suvi bilan birga, texnik ehtiyojlar uchun suvlarni alohida ajratib qo'ygan. Bunday ketishda yaqin o'n yilliklarda toza suv tanqisligiga uchrashimiz aniq.

Suvsiz hayot yo'q. Buni insoniyat anglab yetishi va uni ko'z qorachig'idek asrash shart va zarurdir.

G'ayratulla SHUKUROV,
o'z muxbirimiz.

LUQMA

«GRAFIK O'LSIN-A...»

Biz yo'lovchilar noshukurmiz, shekilli. Nega deysizmi? Ilgari avtobus haydovchilaridan no- rozi bo'lardik. Boisi, ayrim bekatlarda odam yig'ish uchun uzoq to'xtab turishardi. E'tiroz bildirganlarga pul tushumi rejasini bajarishi kerakligini pesh qilishardi. Yoki yo'lovchi tala- shib bir-biri bilan poyga o'ynashardi. Shunaqa paytlari yuragimizni hovuchlab: «Pul o'lsin-a, pul o'lsin!» – derdik. O'sha paytlarda men bir maqolamda haydovchining maoshini pul tushumiga bog'lab qo'ymaslik kerak, u jadval bo'yicha qatnab, yo'lovchilarga sifatli xizmat ko'rsatsa bo'ldi», – deb yozgandim.

Bunday taklif boshqalarda ham bo'lgan ekan, chog'i, nihoyat o'sha niyatimiz amalga oshdi. Shunga ham mana, yarim yil bo'lyapti. Insof bilan aytganda, shundan keyin haqiqatan



ham avtobuslar qatnovi yaxshilanib qoldi. Ilga- rigidek ayrim bekatlarda avtobus ichida uning yurishini kutib jig'ibiyron bo'lish yo'q. Yoki avtobus jadvaldan kechikyapti deb sarg'ayib kutish yo'q. Poygalar ham o'tmishda qoldi. Ilga- rigidek, avtobuslar ichida yo'lovchilar tiqilinch emas. «Mana, bo'larkan-ku!» – deysiz. Ammo...

Afsuski, endi boshqa bir muammo kelib chiqdi. Gap shundaki, ayrim avtobuslar be- katlarga yelday kelib, selday ketyapti. Menga o'xshagan bo'shang yo'lovchilar, ba'zi yosh bolali ayollar, keksalar avtobusga chiqishga ulgurishmayapti. «Hay-hay»lab bekat tomon yugurayotganlarni-ku, gapirmay qo'ya qo- lay. Mabodo, e'tiroz bildirsangiz, shoshqaloq haydovchilar jadvaldan kechikishini ro'kach qilishadi. Hatto avtoshohbekatlarga shamolday kirib, shamolday chiqadiganlari bor. Ilgari «Pul o'lsin-a, pul o'lsin!» degandek, men kabi yo'- lovchilar endi: «Grafik o'lsin-a, grafik o'lsin!» deyishyapti. Nima ham derdik. Davr talabi. Nima bo'lganda ham, shoshqaloq haydovchi- larga insof bersin...

Bobomurod TOSHEV.

QAROR VA IJRO

KIBERMAKONDA – KIBERXAVFSIZLIK

yoxud sohada yagona yondashuv va tizimli ishlarni yo'lga qo'yishda poytaxt tajribasi o'rganildi

Axborot texnologiyalari rivojlanib borgani sari bundan g'araz maqsadda foydalanuvchilar ham ortib bormoqda. Ya'ni, imkoniyatlar olamining ijobiy tomonlari bilan bir qatorda, salbiy oqibatlar ham kundalik hayotimizga kirib kelayotganini inkor etib bo'lmaydi.

Joriy yil 30-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Unda kiberjinoyatlarning barvaqt oldini olish hamda ularni fosh etish samaradorligini oshirish bo'yicha amaldagi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish va qator tashkiliy-texnik choralarni ko'rish belgilandi.

Mazkur qaror ijrosini ta'minlash hamda kiberjinoyatlarga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish maqsadida respublika-ni barcha hududlarida kiberxavfsizlik bo'lim va bo'linmalari yangi tuzil-



ma sifatida qayta tashkil-lashtirilib, Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmalari tashkil etildi. Boshqarmalarda kiberjinoyatlarning oldini olish bo'linmalari faoliyati yo'lga qo'yildi.

– Kiberjinoyatlarning oldini olish tizimini yaxlit boshqarish, respublikadagi barcha xodimlar qisqa muddatlarda yangi tuzilmalar ish jarayonlariga kirishishi va bu borada poytaxtning ilg'or tajribasini respublikaning barcha hududlarida joriy etish maqsadida Toshkent shahar IIB Axborot texnologiyalari sohasida jinoyatchilikka qarshi kurashish

boshqarmasida seminar-trening mashg'ulotlari tashkil etildi, – deydi Toshkent shahar IIBB ATSJQKB boshlig'i o'rinbosari, mayor Jahongir Sa'dullayev. – Mazkur o'quv mashg'ulotlarida qatnashgan Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent viloyati IIBB shahar-viloyatlar IIB ATSJQK boshqarmalari kiberjinoyatlarning oldini olish bo'linmalarining xodimlari hamda vazirlik Akademiyasining 2 va 3-o'quv kursi kursantlari kibermakonda huquqbuzarliklarni oldini olish, targ'ibot tadbirlarini o'tkazish bo'yicha Toshkent shahri tajribasi bo'yicha o'quv mashg'ulotida qatnashishdi.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



TERGOVNI BILIMDONLAR OLIB BORADI

SINCHKOVLIK UNGA XOS

Farg'ona viloyati IIB huzuridagi Tergov boshqarmasi katta tergovchisi, mayor Aqlsher Ahmadaliyevning otasi G'ayratjon aka ham ko'p yillar ichki ishlar organlarida samarali xizmat qilib, 2013-yilda Toshloq tumani IIB YHXG ma'muriy amaliyot bo'limidan pensiyaga chiqqan.

– Ekspert-kriminalistika yo'nalishida tahlil olgan bo'lsam-da, keyinchalik xizmatni tergov sohasida davom ettirishimga to'g'ri keldi, – deydi lavhamiz qahramoni. – Shu bois tergov qilayotgan har bir jinoyat ishiga, unga oid ashyolarga ekspertlardek sinchkovlik bilan e'tibor berishga odatlanganman. Ozgina e'tiborsizlik, aybsiz odamni jinoyatchiga aylanishiga yoki aksincha, jinoyatchi suvdan quruq chiqib ketishi ham mumkin.

Aqlsher Ahmadaliyev ustozlari mayor Ulug'bek Abduvohidov, Minojiddin Xo'jayevlardan sohaning nozik sir-asrorlarini o'rgandi.

10 yildan ziyod vaqt davomida boy amaliy tajriba to'plagan Aqlsher Ahmadaliyev joriy yilning yanvar oyidan viloyat IIB huzuridagi Tergov boshqarmasi katta tergovchisi lavozimida



o'ziga yuklatilgan vazifani a'lo darajada bajarib, ustozlari ishonchini munosib oqlamoqda.

– Qo'shtepada sodir etilgan bir jinoyat hech esimdan chiqmaydi, – deydi u faoliyatidagi e'tiborga molik voqealarni eslab. – O'shanda «Sarmozor» mahallasidagi xonadonlarning biridan tilla taqinchoqlar va pul o'g'rilangan. Shu

kuni tuman IIBda tergov-tezkor guruhi tarkibida navbatchilikda edim. Ushbu xabar bo'yicha voqea joyiga chiqdim. Hodisa joyini bir necha soat ko'zdan kechirib, jinoyatga aloqador biror iz yoki ashyo topolmadik. Biroq qayta-qayta o'rganishdan erinmay, har bir ashyoga sinchkovlik bilan qarab chiqaverdim. Chunki jinoyat sodir etildimi, qayerdadir, albatta, iz qolishini ustozlarim o'rgatgan edi. E'tibor bersam, dera-zalarning birida, juda chekkada qo'l-barmoq izlari borligini payqab qoldim. Izga maxsus kukun yordamida ishlov berib, ekspertiza tadqiqotini o'tkazganimizda, ushbu barmoq izlari Oltiariq tumani «Ko'mirchi» mahallasida yashovchi shaxsga tegishli ekanligi aniqlandi.

Ushbu fuqaroning shaxsiga oydinlik kiritganimizdan so'ng u aybiga iqrar bo'ldi. Ma'lum bo'lishicha, avval ham o'g'rilik jinoyati sodir etgan ushbu fuqaro mazkur xonadon qarovsiz turishi, ko'p vaqt odam yashamasligini oldindan bilib, puxta reja tuzgan holda, qulay payt poylab, o'g'rilikka tushgan ekan. U tajribali o'g'ri bo'lgani uchun o'zidan iz qoldirmaslikka obdan harakat qilgan bo'lsa-da, baribir buning uddasidan chiqolmagan. Agar o'shanda salgina erinchoqlik qilganimizda, jinoyat fosh etilmasligi ham mumkin edi.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

IIV JXD Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati, Andijon viloyati IIB rahbariyati hamda shaxsiy tarkibi Xo'jaobod tumani IIB JXX Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmasi profilaktika inspektori, katta leytenant

Abdurasul ABDUVALIYEVning

bevaqt vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga hamdardlik bildiradi.

ISOQ TO'RAYEV:

HAR ZAMONNING O'Z OVOZI BO'LADI

Teatr va kino san'ati o'ziga xos betakror olam. Mohir ijrochilarning yuksak mahorati ila yaratilgan beqiyos sahna va kino asarlari tufayli biz, tomoshabinlar ham ana shu olamga oshno bo'lamiz, qahramonlar bilan birga yashaymiz, kerak bo'lsa, hayotiy saboq va ibrat olamiz.

Teatr va kinodagi ko'plab rollari, ayniqsa, «Baron» badiiy filmidagi Mardon obrazi orqali yanada mashhurlikka erishgan mahoratli aktyor va rejissyor, O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi Isoq To'rayev bilan suhbatimiz g'oyat qizg'in kechdi.

– Isoq aka, mushtariylarimizni teatr va kino san'ati olamiga kirib kelishingizga turtki bo'lgan omillar qiziqtiradi...

– San'atga kirib kelishimga asosiy sababchi onam bo'ladi. Kechagidek yodimda: onam menga bolaligimda juda ko'p ertaklar, rivoyatlar, hikoyalar aytib berardi. Ularni zo'r qiziqish bilan tinglardim. Keyinchalik, aktyorlikka bo'lgan ishtiyoq va qobiliyatni sezgan, shekilli, onam meni Shahrizabzdagi xalq teatriga ertalab olib borib, kechga olib ketardi...

1983-yili Toshkent teatr va rassomlik san'ati institutini drama va kino aktyorligi mutaxassisligi bo'yicha tamomladim. Ustozlarim – Munavvara Abdullayev, Rustam Usmonov, Yayra Abdullayevalardan tahsil oldim. Ulardan bir umr minnatdorman.

– Teatr sahnasidagi ilk rolingizni eslay olasizmi?

– Mehnat faoliyatim Shahrizabz xalq teatridan boshlangan. Aynan ushbu teatrdan Elmurod Boymurodov rejissyorligida sahnalashtirilgan «Yakka qabr» spektaklida rol ijro etganman. Bu spektakl urushdan ikki ko'zi ko'r bo'lib kelgan yigitning ayancli qismati haqida edi. Birinchi o'ynagan rolim shu.

Aytgancha, oliy o'quv yurtida tahsil olayotgan paytimizda hozirgi O'zbek milliy akademik drama teatrida kichik rollarni ijro etardim. Misol uchun, Yodgor Sa'diyev, Erkin Komilov, Tesha Mo'minovlar bilan bir sahnada, «Oq tanlilar» spektaklida qatnashganman.

Keyinchalik Mannon Uyg'ur nomidagi Surxon-

daryo viloyat teatrida 2 yil ishladim. 1985-yili Qashqadaryo viloyati Mulla To'ychi Toshmuhammedov nomidagi musiqali drama teatrida faoliyatimni davom ettirdim. 1988-yilda «Muloqot» teatr studiyasini tuzdik. Mazkur teatr studiyasi bilan 1991-yili Italiya, Fransiya va Belgiya davlatlarining o'ndan ortiq shaharlarida spektakllar namoyish etdik, «Avenyon» festivalida «Eng yaxshi teatr jamoasi» nominatsiyasi bo'yicha g'olib deb topildik.

– Siz asos solgan «Eski machit» teatr studiyasi ham faoliyatingizda o'zinga xos o'rin egallagan. Shunday emasmi?

– Darhaqiqat, 1992-yilda ish boshlagan «Eski machit» teatr studiyasi milliy maqom va mumtoz ashulalarimiz, folklor qo'shiqlardan foydalangan holda, o'ziga xos yangi yo'nalishni boshlab bergan. Teatr jamoasi bilan dunyoning bir necha davlatlarida gastrol safarlarida bo'lib, nufuzli tanlovlarda faxrli o'rinlarni qo'lga kiritganmiz.

«Eski machit» teatr studiyasidagi faoliyatim davomida «Shayx San'on»da Shayx San'on, «Raqsu samo»da Bahrom, «Nayman ona nidosi»da Jo'lomon, «Qobil ila Ho-

MA'LUMOT
O'RNIDA

Isoq To'rayev 1960-yil Qashqadaryo viloyatining Shahrizabz tumanida tug'ilgan. 1983-yili Toshkent teatr va rassomlik san'ati institutini tamomlagan. «O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi» (1998-yil) faxriy unvoni, «El-yurt hurmati» (2011-yil), «Mehnat shuhrati» (2022-yil) ordenlari sohibi. I.To'rayev rejissyor sifatida Fransiya, Germaniya, Ukraina, Qirg'iziston va boshqa xorij davlatlarida bo'lib o'tgan xalqaro teatr festivallarida ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritgan. Hozirgi paytda Qashqadaryo viloyati Madaniyat boshqarmasi boshlig'i lavozimida faoliyat ko'rsatmoqda.

bil»da Qobil, «Zafaron sari»da Shox Udayana, «Dipretoriy Vinchenso»da Vinchenso, «Shoh Edip»da shoh Edip, «Qirol Lir»da qirol Lir obrazlarini sahnaga olib chiqqanman.

– Kino sohasidagi faoliyatingizga ham to'xtalsangiz.

– Kino sohasida faoliyatim Ulug'bek Zufarov senariysi asosida suratga olingan «Muhabbatim – qismatim» seriali bilan boshlangan. Unda Oybek domla rolini ijro etganman. Keyingi rolim esa «Zebuzar» filmida Zebuzarning otasi obrazi. Keyinroq «Oyqiz» filmida Oyqizning otasi, «Tinchlik ortida» filmida general-mayor Po'latov rollarini jonlantirdim. Kinodagi oxirgi rolim – «Bakr» serialidagi Bos.

– Rejissyor Rustam Sa'diyev boshchiligidagi suratga olingan «Baron» filmi ancha shuhrat qozondi. Ayting-chi, filmning muvaffaqiyati nimada?

– Senariyning murakkabligi, xalqchilligi, ijodiy jamoaning bir yoqadan bosh chiqarib ishlashi filmning muvaffaqiyatini ta'minladi, deya bemaolol ayta olaman. Qolaversa, rejissyor, operator va aktyorlarning tajribasi, mahorati ham alohida o'rin tutdi.

Nokamtarlik bo'lmasin-u, «Baron»da Mardonning ayancli taqdiri, masalan, o'g'lini himoya qilolmagan yetmagandek, qizining bitta tabassumiga zor bo'lishi holatlari real ochib berilgan. Bu har qanday boylik va zo'ravonlik abadiy emasligini ko'rsatadi. Mardon bir epizodda xotiniga shunday deydi: «Bilasanmi, men qachon baxtli bo'lganman? Menga turmushga chiqishga rozi bo'lganingda, o'g'il ko'rganimizda. Qiz ko'rganimizda-ku, mana shu tanamga sig'may ketganman...»

Hozirgi paytda ham turli takliflar bor, ammo ish faoliyatim sababli kinoda qatnasha olmayapman.

– Keyingi paytda kino sohasida milliy mentalitetimizga xos bo'lmagan filmlar, ayniqsa, seriallar suratga olinmoqda. Bunga qanday munosabat bildirasiz?

– Albatta, bu holatni aslo yoqlamayman. San'atning barcha turlarida, ayniqsa, kino san'atida milliy qadriyatlarimiz ulug'lanishini, odob-axloq doiralaridan chetga chiqilmasligini xohlayman. Negaki, kino san'ati bu – katta tarbiya maktabi, uning ta'siri beqiyos. Buni unutmaslik kerak. O'ylaymanki, bunday holatlar o'tkinchi, siz tilga olgan seriallarning umri qisqa. Zero, har zamonning o'z ovozi bo'ladi.

– Shogirdlaringiz haqida ham to'xtalsangiz.

– Shukur, shogirdlarim ko'p. Ular turli san'at maskanlarida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishyapti. Jumladan, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida ishlayotgan Ma'murjon To'rayev, Muqimiy nomidagi davlat musiqali teatri bosh rejissyor Dostonbek Haqberdiyevni alohida aytishim mumkin. Yana bir guruh teatr aktyorlari bor, ulardan ham umidim katta.

– Suhbatimiz so'ngida gazetxonlarimiz – yurt tinchligi va osoyishtaligi yo'lida xizmat burchini fidoyilarcha ado etayotgan ichki ishlar organlari xodimlariga tilaklaringiz bilan o'rtoqlashsangiz.

– Dunyoda eng ulug' ne'mat bu – tinchlik. Osoyishtalik hukm surgan joyda har sohada yuksalish bo'ladi, yurt gullab-yashnaydi. Ana shunday ne'matni ko'z qorachig'idek asrab kelayotgan ichki ishlar organlari xodimlariga sihat-salomatlik tilayman. Yurtimiz hamisha tinch, osmonimiz musaffo bo'lsin.

O'z muxbirimiz Sodiq RAHIMOV suhbatlashdi.

САЛОМАТЛИК САБОҚЛАРИ


ТИШЛАР СЕЗГИРЛИГИ ОРТГАНДА...

Ёзнинг жазирама кунларида кўпчилик муздек сув ичиш билан ўз чанқоғини қондиришга ҳаракат қилади. Хўш, бу жараён инсон саломатлигига қай даражада таъсир кўрсатади? Биринчи галда, тишлардаги пломбалар ҳолати ёмонлашади. Яъни, тиш ва пломба ўртасида ёриқлар пайдо бўлишига сабаб бўлади.

Тиш эмали инсон танасидаги энг қаттиқ модда сифатида юқори босимга чидамлилиги билан ажралиб турса-да, унинг тўсатдан совиши термик шокка олиб келиши мумкин, бу эса микроёриқлар пайдо қилади. Бу нуқсонлар оддий кўз билан кўринмас-да, уларни синчковлик билан қараганда ёки катталаштирувчи асбоблар ёрдамида текширганда яққол кўзга ташланади.

Бундан ташқари, салқин ичимликлар – газланган сувлар, шарбатлар ва лимонадлар тиш эмалига ўз таъсирини кўрсатади. Ичимликлардаги нордонлик эмал минералларини емиради, натижада у ғовак бўлиб қолади ва механик ҳамда термик шикастланишларга, жумладан, совуқнинг ўзига ҳам чидамсиз бўлиб қолади.

Шу ўринда тишлар сезгирлигини қандай камайтириш керак, деган ҳақли савол туғилади. Агар тишларнинг сезгирлик реакциялари доимий тусга ўтадиган бўлса,



биринчи галда, мойчечак дамламаси билан оғиз бўшлиғини чайиш лозим. Бу муолажа тиш эмалидаги микроёриқларни ёпиб, оғриқни камайтиради. Аммо бу беморнинг шифокор-стоматолог ҳузурига бормаслигига етарли бўлмайди. Шифокор билан маслаҳатлашиб қуйидаги муолажаларни амалга оширишингиз мумкин:

* тишларни стоматологик лак билан қоплаш. Бу муолажа «фторлаш» деб аталиб, лак тиш эмалидаги микроёриқлар

ва дентин каналчаларидаги бўшлиқларни ёпиб, нерв охирларига йўлларни беркитади;

* герметик ва тўлдирувчилар суртиш. Бу лакларга қараганда зичроқ препаратлар бўлиб, илдизи очилган тишлар учун қўлланилади;

* тишлар учун махсус ёпғичлардан фойдаланиш. Улар кечаси тишларини ғижирлатадиганлар учун тавсия этилиб, стоматолог индивидуал ҳолда ўзига хос «ясама жағ» тайёрлаб беради. Уларни ётиш олдида «тақиб олиш» тишлар зарарланишининг олдини олади;

* «сезгир тишлар учун мўлжалланган» тиш пастасига ўтиш. Бундай тиш пасталарида ҳам тиш эмалини мустаҳкамловчи, ҳам дентин сезгирлигини камайтирувчи моддалар бўлади.

Интенсив тозалаш, қаттиқ тиш чўткалари ва «ортиқча кучли» тиш пасталаридан фойдаланиб тишларга зарар етказмасликка ҳаракат қилинг.

Алишер РАЖАБОВ,
ИИБ Стоматологик
поликлиникаси бошлиғи
ўринбосари,
капитан.
Адолат ФАЙЗИЕВА,
ўз мухбиримиз.

МЎЪЖИЗА
МЕВА

Гожининг шифобахш хусусиятлари икки минг йил илгари будда монахларига маълум бўлган. Улар мазкур меванинг инсонга қувват беришига, умрни узайтиришига ишонишган. Дарҳақиқат, гожи таркибида мураккаб углеводларнинг кўплиги меванинг қонга сингишини секинлаштиради, бу эса қанд ва инсулин мувозанатини сақлайди. Натижада диабет хавфи камаяди.



Шунингдек, мевада темир, рух, натрий, антиоксидантлар, А ва С витаминлари ҳамда инсон саломатлиги учун муҳим бўлган 8 хил аминокислотанинг барчаси мавжуд. Гожининг 30 grammi инсоннинг бир кунлик оқсилга бўлган эҳтиёжининг 10 фоизини бемалол қоплайди, имунитетни мустаҳкамлайди. Гожи қон айланишини яхшилади, ёғни эритади, токсинларни чиқаради, сочни мустаҳкамлайди, кўриш қобилятига ижобий таъсир кўрсатади.

Мева таркибидаги В гуруҳидаги витаминлар, мис, марганец, магний, селен, темир камқонликни даволашда қўлланилади. Ҳомиладорлик даврида токсикоз ва бел оғриғи даражасини пасайтиради, камқонликнинг олдини олади. А ва С витаминларнинг мавжудлиги эса асабларни тинчлантиради, руҳий тушкунликдан чиқишда ёрдам беради.

Хитой тиббиёти гождан гепатит ва циррознинг олдини олишда, бу касалликларнинг ривожланишини тўхтатишда фойдаланади. Худди шундай, чинликлар уни пешоб ҳайдовчи восита сифатида қўллашади. Кам истеъмол қилсангиз-да, бу мева тўқ тутади. Шу маънода, гожи тез озиш истагида бўлганларга ҳам тавсия қилинади.

Қарийб барча емакка зиравор сифатида ишлатиш мумкин, таомга ёқимли таъм ва ҳид беради. Агарда гўштга қўшиб пиширилса, темирнинг қонга сингишига кўмаклашади. Гожининг меваси майда, таъми эса қимизак бўлади. Мевани қуритилган ҳолатда ейиш мумкин. Косметикада ҳам кенг қўлланади.

Яна бир маълумот: Хитой ва Мўғулистонда кўп учрайдиган мазкур мевали дарахт бугунда Россия, Қозоғистон ва сўнгги йилларда юртимизда ҳам етиштирилмоқда. Демокчимизки, дарахтни томорқангизда ўстирсангиз, ўзингиз ва яқинларингизни кўплаб дардлардан ҳимоялайсиз.

Аваз МУХТОРОВ,
Жиззах вилояти ИИБ
Тиббиёт бўлими госпитали
дорихонаси мудир.

КАК НЕ ДОПУСТИТЬ ОБЕЗВОЖИВАНИЯ В ЗНОЙ

Жаркие дни летом – привычное явление. Под палящим солнцем наш организм теряет не только влагу, но и жизненно важные минералы.

Что происходит с организмом?

При высокой температуре усиливается потоотделение – с потом уходит не только вода, но и соли. Недостаток жидкости может привести к головной боли, сухости кожи, слабости, нарушению давления, а в тяжелых случаях – к обморокам.

Особенно уязвимы дети и пожилые: у малышей обмен веществ происходит быстрее, а пожилые часто не ощущают жажды даже при серьезной потере жидкости.

Сколько и как пить?

В жару врачи советуют пить не менее 2–2,5 литров воды в сутки, а при физической нагрузке или прогулках на солнце – еще больше. Главное – не пить резко и залпом, а небольшими глотками каждые 20–30 минут, даже если жажды нет. Ощущение жажды – уже тревожный сигнал.

Что пить в жару?

Вода – самый важный источник гидратации. Лучше

всего – чистая, фильтрованная или минеральная без газа. Добавьте дольку лимона, огурца или лист мяты для свежести.

Домашние морсы и компоты. Они хорошо утоляют жажду и насыщают витаминами. Главное – умеренное количество сахара.

Айран, кефир, ряженка – кисломолочные напитки не только утоляют жажду, но и успокаивают желудок, восполняют кальций. Айран с щепоткой соли – отличный выбор после нахождения на солнце.

Травяные отвары – мята, липа, мелисса и ромашка обладают легким охлаждающим и успокаивающим действием. Подходят для вечернего приема.

Чего стоит избегать?

Газировка – быстро насыщает, но не утоляет жажду. Сахар, консерванты и пузырьки только усиливают обезвоживание.

Крепкий кофе – обладает мочегонным эффектом. Допустимы 1–2 чашки, но только при условии хорошего водного баланса.

Магазинные соки – много сахара, мало пользы. Предпочтение – свежевыжатый или домашний напиток без сахара.

На что обратить внимание?

Признаки обезвоживания: сухость во рту и губах, темная моча, учащенное сердцебиение, головная боль и вялость, раздражительность, головокружение при вставании.

Если вы заметили у себя эти симптомы – отдохните в тени, пополните водный запас и избегайте солнца.

Убедитесь, что у детей всегда при себе есть вода, а пожилые родственники регулярно пьют не только чай, но и обычную воду. Включите в рацион арбузы, свежие овощи, супы и кисломолочные напитки.

Комил КУРБОНОВ,
зам. начальника
поликлиники медицинского
отдела ГУВД
Ташкентской области,
подполковник.



Социологический опрос

ИЗМЕНИЛСЯ ЛИ ИМИДЖ СОТРУДНИКОВ ОВД?

Мы провели мини-опрос среди представителей разных профессий, чтобы узнать их мнение об изменении имиджа сотрудников органов внутренних дел в последнее время. Ниже делимся некоторыми ответами.

Светлана СТРЕЛЬЦОВА, бухгалтер:

«Определенно, изменения есть, и они в лучшую сторону. Раньше, когда представляла себе сотрудника, это был такой суровый, недоступный человек. А сейчас, я замечаю, что сотрудники ОВД все чаще становятся героями в глазах людей. Недавно читала новость, как сотрудник спас ребенка – это ведь настоящий подвиг! Они стали более открытыми и ближе к народу. Чувствуется, что они действительно заботятся о нашей безопасности».

Лилия МИРАЮБОВА, методолог образовательных программ:

«Мне кажется, самое главное изменение – это переход от имиджа органа запугивания к органу помощи. Раньше органы внутренних дел ассоциировались с проверками, задержаниями, а сейчас, по крайней мере в моем окружении, все больше говорят о них как о защитниках. Я сама недавно видела, как сотрудники ДПС помогали водителю на дороге после ДТП, проявляя искреннее участие. Это очень приятно видеть».

Аброр ЭЛЬМУРАДОВ, предприниматель:

«Я, как человек, который часто взаимодействует с государственными структурами, могу сказать, что изменения видны невооруженным глазом. Раньше было много бюрократии, не приветливости. Сейчас же, по моим наблюдениям, сотрудники стали более доступными и готовыми к диалогу. Чувствуется, что они ориентированы на решение проблем, а не на создание новых. Эта открытость в работе с населением очень важна для формирования положительного имиджа».

Сабина АБДУШУКУРОВА, студентка:

«Для меня, как для представителя молодого поколения, образ сотрудника органов внутренних дел раньше был немного устаревшим, что ли. Но сейчас я вижу, как они активно используют социальные сети, проводят акции для молодежи, становятся более современными. И что самое важное, они стали гораздо более тактичными. Недавно видела, как сотрудник ППС помог потерявшейся пожилой женщине. Он был такой терпеливый и добрый! Это показывает, что они действительно служат народу и готовы помогать в любой ситуации».

Записала Азиза БОХОДИРОВА,
майор.

МУНАЖЖИМЛАР БАШОРАТИ (7-13 июль)



Қўй. Бу ҳафта молиявий аҳволингиз яхшиланади. Айни ҳафта фаол ҳаракатлар даври бўлиб, келгуси муваффақиятларга эришиш ва фаолиятда ёрдам берувчи фойдали алоқаларни ўрнатиш учун яхши имкониятдир. Ҳордиқ кунларида вақтни ҳузур ва ҳаловатда ўтказган маъқул.



Бузоқ. Ҳафта якунигача тўпланиб қолган барча ишларни ҳал этишга ҳаракат қилинг. Ўзингиз учун вақт ажратинг, масалан, оқшомлари сайрга чиқинг, дам олиш кунлари мароқли дам олинг.



Эгизаклар. Бу ҳафтада касбий соҳангизга оид қийинчиликлар юзага келиши, пул йўқотишлар кузатилиши мумкин. Имкон қадар атрофдагилар билан зиддиятли муносабатларга борманг. Дам олиш кунларини севимли ва қадрли инсонлар даврасида ўтказинг.



Қисқичбақа. Саломатлик ва ташқи кўринишга жиддий эътибор қаратинг, шунда кўтаринки кайфиятга ҳам эга бўласиз. Бу ҳафтада йирик харажатлар билан боғлиқ ҳаракатларни амалга оширмаганингиз маъқул. Аксинча, айни дамда маблағ сарфлаш эмас, пул йиғиш лозим бўлади.



Арслон. Бу ҳафта ишда рағбатлантириш олиш ёки лавозимингиз кўтарилиши эҳтимоли юксак. Лекин ҳиссиётга берилиб, хатога йўл қўйиладиган вазиятлар юзага келиши мумкин. Шунинг учун ҳар бир ҳаракатни яхшилаб ўйлаб кўриб, сўнгра амалга оширинг.



Паризод. Бу ҳафта можаролар, келишмовчиликлар ва баҳс бойлашлардан йироқ туринг. Кутилмаган муаммолар юзага келиши мумкин. Шу боисдан ҳис-ҳаяжонларингизни бошқариб, имкон борида босиқлик билан ҳаракат қилинг. Ҳафтанинг иккинчи ярмида атрофдагилар билан муносабатингиз самимийлашиб, ўзингизни енгил ҳис қиласиз.



Тарози. Баъзи ишлар кўнгилдагидек кетмаётган бўлса-да буларнинг ҳаммаси яхшиликка бўлганини англаб етасиз. Бирон танлов олдида кўп қарра яхшилаб ўйлаб кўришни унутманг. Бу ҳафта иш билан боғлиқ учрашувлар учун муваффақиятли даврдир. Омадингизни қўлдан бой бермасликка интилинг.



Чаён. Бу ҳафта яхшигина пул ишлаб олиш таклифи келиб тушса, бундай имкониятдан фойдаланиб қолинг. Яқинлар билан муносабатда одатдагидан мулойимроқ ва меҳрибон бўлинг. Уларга айни дамда сизнинг қўллаб-қувватлашингиз жуда зарур.



Ўқотар. Мазкур ҳафта оилавий масалаларни ёки анчадан бери ўз ечимини топа олмаётган муаммоларни ҳал этиш учун қулай даврдир. Ушбу кунларда кайфиятингиз кўтаринки бўлиб, қўл урган аксарият ишларингиз бароридан келади. Бунинг учун янада фаол ҳаракат қилиш талаб этилади, холос.



Тоғ эчкиси. Ижодий шижоат бошингиз билан ишга шўнғишга мажбур этиши мумкин. Ниманидир қўл меҳнати ёрдамида бажариш зарур бўлса, буни ҳеч иккиланмай, албатта, амалга оширинг. Айнан ҳозир тўғри қарор қабул қилиш учун қулай даврдир. Даромад келиши аниқ бўлса-да, беҳуда сарф-харажатлардан тийилинг.



Қовға. Севимли ишингиздан ва ёқимли инсонлар билан мулоқотдан баҳра олинг. Ҳафтанинг иккинчи ярми истиқболли режалар учун самарали давр, уни қўлдан бой бермасликка ҳаракат қилинг. Дам олиш кунлари яқинларингизни ва кексаларни зиёрат қилишни қанда қилманг.



Балиқ. Сафарлар, саёҳатлар ва янги иш бошлаш учун қулай давр. Шунингдек, бу ҳафтада режалаштирилган муҳим иш учрашувлари муваффақиятли кечиб, бизнес ва шахсий ҳаётда кўпгина ижобий натижалар олиб келади. Ҳафтанинг сўнги кунларини оила даврасида яқинларингиз билан ўтказинг.



МАЪНАВИЯТ МАРШРУТИ

СЎЛИМ ВА СОКИН ИЖОДКОРЛАР БОҒИ

Кўҳна Марғилон шаҳрида кўплаб тарихий-маданий ёдгорликлар, муқаддас қадамжолар, ҳунармандчилик марказлари, музей ва истироҳат боғлари борки, уларнинг ҳар бири ҳақида алоҳида китоблар ёзилган. Бу масканлар марғилонликларнинг азал-азалдан илм-маърифатга, адабиёт ва санъатга иштиёқи баланд эканидан далолат бериб туради.

2018 йилда давлатимиз раҳбари ташаббуси билан ташкил этилган Ижодкорлар боғи тарихий шаҳарга янгича кўрк ва чирой бағишлаб, мамлакатимизнинг турли ҳудудларидан келадиган меҳмонлар, ҳатто хорижлик сайёҳлар учун ҳам суюкли масканга айланди. Бу маънавият манзилига атоқли давлат ва жамият арбоби, Ўзбекистон Қаҳрамони, халқ шоири Эркин Воҳидов номи берилган.

Орадан йиллар ўтгани сайин боғ бетакрор чиройга эга бўлиб бормоқда. Ўзига хос ландшафт дизайни асосида экилган ноёб манзарали дарахтлар таровати, анвойи гуллар ифори киши баҳри дилини очади. Боғ дарвозасидан ичкарига қадам қўйгансиз, Эркин Воҳидовнинг дилга яқин шеър ва ғазаллари, санъаткорларнинг мумтоз кўшиқлари янграб, сизни беихтиёр адабиёт бўстонида чорлай-

ди. Ташриф буюрувчилар худди она табиат кўйида юргандек эмин-эркин, яйраб нафас олишадди. Шу маънода, бу боғни руҳиятни покловчи, бокира туйғуларни тарбияловчи маънавият ва маърифат маркази, дея аташ мумкин.

Боғнинг кираверишига Эркин Воҳидовга юксак эҳтиром сифатида унинг мухташам ҳайкали ўрнатилган. Бу ерга келганлар шунчаки табиатни сайр қилиб кетмайди. Боғ ичида адиб номидаги ижод-мактаби, Эркин Воҳидов мемориал музейи, Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси вилоят бўлими, Нурунийлар маскани ва бошқа кўплаб иншоотлар жой олган бўлиб, гўзал бир ансамблни ташкил қилади.

Хотира ва қадрлаш куни арафасида Ижодкорлар боғи яна бир гўзал ма-



ва, Гавҳар Раҳимова каби улуг сиймоларнинг бюстлари очилди. Мажмуа ичида жойлашган Эркин Воҳидов мемори-

ал музейи адабиёт ихлосмандлари билан доим гавжум. Вилоят ички ишлар органларининг турли соҳавий хизмат ходимлари ҳам бу маънавият манзилига тез-тез саёҳат қилиб туришади. Яқинда вилоят ИИБ ЖТСБ патруль-пост хизмати ходимлари ижодкорлар боғи ва мемориал музейда бўлиб, бу ердаги нодир экспонатларни томоша қилишди.

Эркин Воҳидов ҳаёти ва ижодига оид кўргазмалар, ашёлар, қўлёзмалар,

фотосуратлар уларда катта таассурот қолдирди. Шу ерда музей илмий ходимлари ва юрт посбонлари иштирокида давра суҳбати ва мушоира ташкил этилди. Ички ишлар органлари ходимлари ҳам шоирнинг бир неча ғазал ва шеърларини ёд ўқиб, адабиётга бўлган меҳр ва муҳаббатлари чексиз эканлигини амалда намоён этишди.

Азиз газетхон, кўҳна Марғилон заминига йўлингиз тушса, албатта Ижодкорлар боғига бир кириб ўтинг. Бу манзилни сайр қилиб, бир олам завқ, маънавий озуқа оласиз ва руҳий қувватга эга бўласиз!

Абдувосит СИДИҚОВ,
ўз мухбиримиз.
Фарғона вилояти.



MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir
polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari
podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV
mayor
Aziza BOHODIROVA

Mas'ul muharrir
Sarvar SOBIROV

Veb-dizaynerlar
Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Navbatchilar
Adolat FAYZIYEVA
Radik TUMPAROV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Obuna masalalari bo'yicha:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami h/r
23402000300100001010.
Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
470010860262877031101179001
STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Manziliz: 100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma № 1753.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3.
Hajmi – 6 bosma taboq.
44270 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:
Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.